

Mehr-muhabbat maktabi

"Ma'rifat"ga marhum ustozimiz Sa'dulla Hakim bosh muharrir bo'lgan chog'da ishga qabul qilin-ganmiz. Ustoz katta dargohga ishga o'tganligi sabab shu yili gazetaga rahbarlikka tayinlandik.

Tahririyatda sovet davrida qaror topib, oqavasi davom etayotgan ba'zi odatlarni yangilash juda og'ir kechgan.

8-bet

"Ma'rifat"ning yuragi

Halim Saidovni "seleksioner" deyishardi. Menden keyin kursdoshlardan yana 5-6 nafarini ishga oldi. Odatda "Ma'rifat" tramplin vazifasini bajarib, kadrlarni yaxshi tarbiyalardi-da, so'ng boshqa nashr va sohalarga transfer qildi.


10-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yidan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 30-iyun, chorshanba № 26 (9351)

Xalq ziyo'lilari gazetasini



90 yil. Aytmoqqa oson. Tuzumlar, dunyoqarashlar, zamонлар алмашди. Lekin hamisha navgiron "Ma'rifat"im o'z yo'lini, maqsadini, haqiqatini o'zgartirmadi. 1988-yildan beri u bilan birgaman. "O'qituvchilar gazetasi" deb nomlanganda ham, hozir ham mamlakatimiz ta'lim-tarbiyasi, ziyo'lilarining yutuqlari, muammlo va kamchiliklari, orzularini aks ettiruvchi dolzurb maqolalari bilan boshqa nashrlardan og'iroq yuk bosadi. Agar bolaligimdan kitob, jurnal va gazetalar do'stim bo'limaganada, chekka qishloqdag'i oddiy o'quvchining yozgani "Ma'rifat" sahifalarida hech qanday ta'masiz chop etilmaganida, balki bugun o'qituvchi bo'lmasmidim?! Shu kasbni tanlaganimda ham "Ma'rifat"im qo'slimdan tutmasa, pedagogik mahoratimni oshirmsa, bugun viloyatda o'z o'mi va ovoziga ega ustoz bo'la olmasdi.

Ziyoda MAMAJONOVA

Salkam bir asrdan beri o'qituvchilarning eng yaqin hamkoriga aylangan "Ma'rifat" — otaxon gazeta. Dadam rahmatli kechqurunlari konsept yozib bo'lgach, gazeta o'qirdi. Stolda doim "O'qituvchilar gazetasini" ("Ma'rifat") va "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetalarini turardi. Ehtimol, menda o'qituvchilikka havas shular tufayli yuzaga kelgandir. Hozir men ham dadamdek o'qituvchiman. Ish stolimda bir necha yillardan beri hamkorim, ko'makchim — "Ma'rifat" bor. U o'qituvchilarining muammlari, orzu-istiklarini yuqori tashkilotlarga yetkazayotgan bemimint dastyor. O'tgan yili gazetada berilgan ustama haqidagi fikrlarimni bu yil yangi ustama nizomida o'qidim. Unga ishonch va ixlosim yana ortdi.

Madinaxon NIZOMOVA

"Ma'rifat" bilan yoshlikdan qadronmiz. Birga o'sdik, ulg'aydik, katta bo'ldik. Onamning bobosi XX asr boshlarida o'z uyida birinchи maktab ochgan ziyo'lilardan biri. Ana shu paytdan avlodimizda o'qituvchilar sulolasi shakillandi. "Ma'rifat" gazetasi to'qson yildan beri sulolamiz bilan bab-baravar qadam tashlab kelyapti. Hamisha "Ma'rifat" xonadonimiz to'ridan joy olib kelgan. Suyumli gazetamizning umri uzun, salohiyati yuksak bo'lsin.

Sarvinoz SUNNATOVA



Ustozlarimni tanitgan gazeta



1991-yil kuz oylarida gazeta sahifalarida (o'shanda u "O'qituvchilar gazetası" deb nomlanardi).

"Mohiyatga intilgan qalb" degan katta hajmli maqola e'lom qilindi. Maqola o'zbek tilshunosligi va ona tili ta'limenti yangilash muammolari, uning yalovbordori, atoqli olim va metodist Hamid Ne'matov haqida edi. Men bungacha ustoz haqida og'izdan og'izga o'tib yuruvchi gaplarnigina bilar, aniq va tizimli ma'lumotga ega emasdim. Maqolani hayrat bilan o'qib chiqdim va ushbu sonni halyam o'qiyman. Gazeta menga ustozim shaxsi haqida to'laqonli ma'lumot berdi, deb aytaman.

Ustoz tanlash bosqichida turgan, hali "oyoqlangan qo'ziday" dovdirab yurgan mendek talabgor uchun bu maqola hayot yo'llimda mayoq, qo'limga berilgan kompos vazifasini o'tadi. Bir qarorga keldim va ustoz huzuriga yo'l oldim. Hamma Toshkentga ustoz izlab ketayotganda men Buxoroga jo'nadim. Gazeta meni adashtirmadi. Ustoz desa ustoz, pir desa, pir degulik insonni topgan edim.

kasi taraqqiyotida muhim voqelik edi va ushbu nazariya rivojlantirilib bugun millatimiz faxrlansa arzigulik, dunyoda o'xshashi yo'q ta'lomitga aylandi.

Hamid Ne'matov shogirdlari bilan sistem leksikologiya sohasida keng ko'lamli tadqiqotlarni olib bordi. Natijada so'zlarning giperonomik, partonimik, funkcionimik, graduonimik kabi munosabatlari, leksik-semantik qatorlar, maydonlar aniqlandi va tilning markaziy birligi bo'lgan so'zning mohiyati tomon yanada chuqurroq kirishga harakat qilindi.

Hamid Ne'matov o'z maslakdoshlari va shogirdlari bilan substansial oqimni shakllantirishga harakat qildi. Bu yo'naliшhning mohiyati, unda til birligining ichki mazmuni tashkil etuvchilariga katta ahamiyat beriladi, har bir mikroelementning xususiyatlari o'rganilib, uning o'z butunligi (til birligi) faoliyatida tutgan o'mi, hissasi, imkoniyatlari kabilan aniqlanadi. Substansial oqimning tadqiq obyekti til birligidagi imkoniyatning voqelikka, lisonidan nutqqa yo'naliшhni masalasidir. Shu bois ushbu oqimda qolip (model), formula, invariant tushunchalari yetakchilik qiladi hamda logik, psixolingvistik, kognitiv, ekstral-lingvistik omillar bilan ish ko'rildi. Professor Hamid Ne'matovning ko'rsatishicha, o'zbek tilshunosligida bundan keyin bajariladigan tadqiqotlarning taraqqiyoti tilshunoslarning zamonaviy gnoseologiya, dialektik mantiq, dialektik falsafa, tabiiy fanlarning metodologik asoslarini bilishlari va ularni til tadqiqotlariga tatabiq eta olish darajasiga ham bog'liq.

Hamid Ne'matov o'zbek tilshunosligi va turkologianing taraqqiyotini belgilab beruvchi istiqbolli dasturlar ham qoldirib ketdi. Uning leksik mikrosistema hamda turkiy tillar sintaksisini o'rganishga oid ilmiy-nazariy dasturlari shular jumlasidandir.

Professor Hamid Ne'matov ona tili ta'liming tom ma'nodagi jonkuyari edi. Bu borada gazeta ustoz uchun sevimli va bag'rikeng minbarga aylanadi. U mustaqillik bo'sag'asida RUMS Respublikasi ta'lim markazining yetakchi mutaxassisasi maqomida "Ma'rifat" da ona tili ta'limi mazmuni, maqsadi, usuli va vositalarini o'zgartirishga oid bahs-munozaclar tashkil etishga boshchilik qildi. Natijada ona tili ta'limga respublika o'qituvchilarining nuqtayi nazarlarini ifodalovchi "O'qituvchi", "Ijod", "Induktiv" kabi yangi muqobil dasturlar yaratildi va u tuman, shahar, viloyat, respublika bosqichlarida muhokama etildi hamda bunda H.Ne'matov yetakchiligi tayyorlangan "Induktiv" dasturiga katta ishonch bildirildi.

Gazeta dolzarb ilmiy-metodik muammolarni izhil hal etib borish uchun "O'zbek tili" doimiy anjumani ta'sis etishda ustozga yaqindan ko'makdosh bo'ldi. Ushbu har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan anjumanga professor Hamid Ne'matov o'n yillardan ortiq raislik qildi. Natijada maqsadga muvofiq ta'lim standartlari (DTS), darsliklarning yangi avlodni vujudga keldi. H.Ne'matov g'oyasi amalga oshib, ona tili ta'limi induksiyadan deduksiya tomon amalga oshirila boshladи.

Hamid Ne'matov yetakchiligidagi yaratilgan maktab darsliklari va qo'llanmalari yangiligi, mantiqiyligi, yuksak didaktik ko'rsatmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Muallifning maslakdoshlari bilan yaratgan oliy ta'lim darsliklari hozirgi lingvistikating so'nggi yutuqlarini aks ettirganligi, bo'lg'usi ona tili o'qituvchilarining falsafiy-mantiqiy mushohadalarini ham oshirishga qaratilganligi bilan qimmatlidir. Ustoz ona tili ta'limida amalga oshirilgan islohotlarda gazetanining rolini minnatdorlik bilan eslar edi.

Bugun ustoz oramizda yo'q. Ammo uning g'oyalari yashovchanligiga "Ma'rifat" gazetasi faoliyatini misolida amin bo'lib turibman. Boshqa o'quv predmetlarini kamsitmagan holda ayishimiz mumkinki, ustoz izaridan borgan ona tili o'qituvchilariga uchun gazeta har doim ta'lim muammolarini yorituvchi minbar ekanligini saqlab qoldi. Ta'limda eng ko'p tanqid qilingan o'quv predmeti "Ona tili" bo'ldi. Tanqidlar natijasi o'laroq bugun u eng ilg'or sohaga aylanayotir. Albatta, bunda biz "Ma'rifat" dan qarzdormiz.

Ustoz Hamid Ne'matov g'oyalari tantanasi uchun kuyib-pishib yurgnimizda gazetada faoliyat ko'rsatayotgan marhum (Olloh joylarini jannatdan qilsin) Mahmud Sa'diy jonimizga ora kirdi. "Ma'rifat" gazetasida ona tili ta'limi muammolariga bag'ishlab yozilgan 20 ga yaqin maqolamiz ustoz Mahmud Sa'diy sharofati bilan dunyo yuzini ko'rди. Bugun ommalashgan grammatzimdan (grammatikadan emas) xoli ona tili ta'limi, olyi filologik ta'lim, o'zbek tilining milliy korpusi haqidagi ilk fikrlarimizning omma e'tiboriga havola etilishida bu jannati insonning qo'llab-quvvatlashlarini unutib bo'laridi! Har bir so'z, har bir jumlamiz u kishining nazaridan o'tar, ko'nglidagidek bo'limguncha qo'yib yubormas edi.

Mahmud Sa'diy maqolalarimizga bildirilgan barcha – ijobjiy va salbiy munosabatdagi materiallarni ham gazetada berar, "tayyor turgin, mana bunday munosabat-maqola ketyapti" deb ogohlantirib ham turar edi.

Ustozim Hamid Ne'matov ilmiy uslubim shakllanishiga ta'sir qilgan bo'lsa (uslubimga nisbatan "дурак не поймёт, умный не спросит" degan iborani qo'llardi), domla Mahmud Sa'diy uni sayqallashga ko'mak berdi. Mahmud Sa'diygacha murakkab, "akademik" uslubda yozar edim va o'quvchiga ularni o'qish malol kelar edi. Mahmud Sa'diy esa menda fikrimni ravon va tushunarli ifodalash ko'nikmasini shakllantirdi. Shunday qilib, men ilmda Hamid Ne'matov, uslubda Mahmud Sa'diy "shinelidan chiqdim". Ma'rifatga xizmatda esa "Ma'rifat" metin qo'rg'on bo'ldi.

"Ma'rifat" ma'rifat tarqataversin. Ishonchim komil, ma'rifatga tashnalik bor ekan, gazeta uning bulog'i bo'lib qolaveradi:



Butun dunyoga mashhur turkiyshunos A.N.Kononov va faylasuf tilshunos S.N.Ivanovlarning shogirdi — Hamid Ne'matov o'zbek tilshunosligi, turkologiya, umumiylik tilshunoslilik nazarisiy rivojiga, til tadqiqotlari va ona tili ta'limi sifatini yanada yuqoriq bosqichga ko'tarishga munosib hissa qo'shgan olim edi.

Hamid Ne'matov o'zbek tili tadqiqotlari lison — nutq dixotomiysi asosida olib borishga, buning uchun har qanday taraqqiy etgan fonda bo'lgani kabi, umumiylik – xususiylik, imkoniyat – voqelik, mohiyat – hodisa kabi, safsa va dialektik mantiq kategoriyalari bilan qorollanishga da'vat etdi. Shundagina murakkab tabiatli lison(imkoniyat, mohiyat, invariant, invariant, abstract tizim)ni nutq (xususiylik, variant, hodisa) orqali tushunish mumkinligini uqtirdi.

Ma'lumki, tahsil va umumlashtirish tilshunoslilikning tayanch usullaridir. Odatta, o'zaro uszviy bog'liq, bir-birini shartlovchi bu usullardan biri har bir fanning muayyan davrida nisbatan yetakchilik qiladi. XX asrning 20-yillari gacha bo'lgan o'zbek tilshunoslighida tahsil usuli ustuvor edi. Bu davrda o'zbek tili tizimi (butunligi) qismrlarga, qismlar yana qismlarga ajratilib, ikkilik zidanishlariga qo'yilib, tashkil etuvchi biriklar, kategoriyalar, mikrosistema-

lar aniqlandi va ularga formal mantiq metodologiyasi asosida tafsiflar berildi. An'anaviy tilshunosligimiz shu yo'sinda faoliyat ko'rsatib kelayotgan edi. 80-yillardan boshlab tilshunosligimizda sintez metodi yetakchiligi, avvalgi davrda ajratilgan qismlarni butunlashtirish, tashkil etuvchilarining o'zaro munosabati, strukturaning funksiyalarini aniqlash, semantik-grammatik maydonlar muammolari yoki sintez metodiga asoslangan sistemaviy tilshunoslilik masalalari shakllana boshladi. Buni o'z vaqtida ilg'agan Hamid Ne'matov sistem-struktur tilshunosliking g'oyalari, tushunchalari, metodologiya va metodolarini targ'ib qila boshladi va bu oqimming o'zbek tilshunosligidagi yetakchisiga aylandi. Shu yillari gazetada Hamid Ne'matovning qayta qurish strategiyasi va o'zbek sinxronik tilshunosligining dolzarb vazifalariga bag'ishlangan katta maqolasi e'lom qilingan va unda o'zbek milliy tilshunosligining tamal toshlari, zamoniaviy milliy ona tili ta'limi davrida poydevori qo'yilgan edi.

Professor Hamid Ne'matov o'zbek tilining gap qurilishini lison (imkoniyat) – nutq (voqelik) zidlanishi va sistemaviylik tamoyilidan kelib chiqib, gapning eng kichik qolipi (Wpm) va uning kengaytiruvchilarini nazariyasini yaratdi. Bu o'zbek milliy grammati-



Matbuot organlari, xususan, gazeta mamlakat va millat madaniyati va ma'rifatining ajralmas bir qismi hisoblanadi. U qanchalik uzoq tarixga ega bo'lsa, shunchalik an'analarga boy va shu qadar xalq ongiga singgan bo'ladi. Mening yoshim hozir yetmishta. Esimni tanib, gazeta-jurnal o'qiydigan bo'libmanki, "O'qituvchilar gazetasi" deb ataladigan gazetani o'qiganman. Unda chop etiladigan turli-tuman maqolalardagi foydali fikrlardan bahramand bo'lganman. Keyinchalik gazeta o'z mazmun-mohiyatiga mos ravishda "Ma'rifat" deb atala boshladi hamda shu kungacha o'z zimmasidagi vazifani sharaf bilan uddalab kelmoqda.

Aks sado zarur

Avvallari bu gazetada ko'p ishtirot etganman, deya olmayman. Faqat 1995-yil ardoqli shoiramiz Zulfiya tavalludining 80 yilligiga bag'ishlab, opamiz u paytda hayot edilar, u kishining "Babor keldi seni so'roqlab" nomli she'ri tahlil etilgan "Azizdan azizim" degan maqolam bosilgan. Keyinchalik, 2015-yildan boshlab gazetada deyarli muntaзам chiqib kelmoqdaman. Menga gazetaning tahliliy usuli, ko'tarayotgan masalaga prinsipial munosabati hamda keskin tanqidiy yo'naliishi yoqadi. Gazeta tahririya va bosh muharrir keskin hayotiy va ilmiy muammolar qo'yilgan maqolalarni qadrhaydi va chop etishdan hayiqmaydi.

Prezidentmiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida Yangi O'zbekistonni dunyoning rivojlangan mamlakatlari safiga qo'shish, mintaqamizda yuz ko'rsatgan ikki Uyg'onishdan keyingi uchinchini Renessansga poymay qo'yish jarayonida "Ma'rifat" gazetasining shunday xatti-harakati va intilishi nihoyatda muhim. Chunki tanqid bor joyda taraqqiyot bor, olg'a siljish bor.

Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Tanqid qachon yaxshi, agar unga aks-sado bo'lsa. Aytilgan tanqidiy fikrlar saragi sarakka, puchagi puchakka ajratilib, haqqoniyari amalga oshsa, o'pirilgan bir joy tuzatilsa. Agar tanqidiy maqolalar yozilib, chop etilsa-yu, unga birov nima deyapsan demasa, mutasaddi tashkilotlar tanqid qilingan masalalar bo'yicha chorako'rmasa... Bu endi juda yomon, va havot davlatchilikimiz uchun xavfli hotat.

"Ma'rifat" gazetasi mas'ul bo'lgan soha - Xalq ta'limi va oliy ta'lim hamsha ham muammolarga serob bo'lgan, ularni oqilona hal qilish esa taraqqiyotga yo'l ochishi shoyon haqiqat. Buning ustiga ushbu sohalar yosh avlod tarbiyasi va ilm olishiga bevosita daxldor. Bu boradagi uchraydigan muammolarni muvaffaqiyatlari yechish uchun tanqid va o'z-o'zini tanqid suviga havodek zarurdir.

Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib, degan purmazmum maqolimiz bor. Kimdir, nimadir tanqid ostiga



olinar, nimadir nobop amal haqida kuyunchaklik bilan gapirilar ekan uning orqasida muqarrar ezgu maqsad yotadi. Ushbu ezgu maqsadni anglamaslik, unga e'tibor bermaslik, bu kamida is-rofgarchilikdir. O'zini tuzatmoqchi, shu bilan olg'a ketmoqchi bo'lgan jamiyat tanqid kabi dori va malhamadan foydalanmasligi mumkin emas. Hozircha bizda buning aksi bo'lmoqda, vaziyatni o'nglashga qaratilgan chiqish va murojaatlar mutasaddi tashkilotlar tomonidan e'tiborsiz qoldirilmoqda. Gazetaning 2021-yil 23-iyun sonida "Murojaatlar javobsiz qolmoqda, qachon uyg'onasiz, mutasaddilar!" degan katta maqola ayni shunday noxush holat haqida bong uradi. Unda yozilishicha. "Ajablanarlisi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga jo'natilgan 9 ta murojaatga hali ham javob qaytarilmadi". Ma'lumki, "mutasaddi" biror ishni boshqarish uchun tayinlangan kishi yoki tashkilotni anglatadi. Tabiiyki, bu kishi yoki tashkilot davlatga tegishli, davlat tomonidan tayinlangan bo'ladi.

Shunday ekan, matbuot organi tomonidan yuborilgan murojaatga javob bermaslik, davlat tomonidan o'rnatilgan qonun-qoidalarga rioya etmaslik emasmi?

Bunday noxush holga Respublika Oliy Majlisli Qonunchilik palatasi e'tibor qaratib, murojaat-javob tizimini aniq yo'lga qo'yishi lozim. Davlatchilik qonun-qoidalari shuni talab qiladi.

Tabiatda aks-sado hodisasi mavjud bo'lib, u tovushning uzoqdag'i to'siqqa urilib, undan qaytib eshitilishini bildiradi. Sado bo'lsa-yu, uning qaytishi bo'lmasa, aks-sado hosil bo'imaydi. Jamiyatdagi taraqqiyot yolg'iz sado bilan emas, aks sado bilan qoim. Sado aks sado bo'lsin. Shunda amalijati ham bo'ladi.

So'zim adog'ida sevimli gazetamiz "Ma'rifat"ga uzoq umr hamda hozir gidek jangovar ruh tilayman. Chin ma'rifat osonlikcha erishilmaydi.

Suvon MELI,
O'zbekiston Respublikasida xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi,
filologiya fanlari doktori

"Ma'rifat"ning Ma'rifati bo'lgim keladi

Olmon ustozim butun dunyo tajribadan o'tkazayotgan "Hard Skills" ("Qattiq ko'nigmalar") va "Soft Skills" ("Yumshoq ko'nigmalar") haqida ma'ruza qilayotgan chog'i xayolim beixtiyor "Ma'rifat" gazetasiga ketdi. Chunki ushbu dargohda 90 yildan buyon bugun zamon talabi bo'lgan tajribalar allaqachon fidoyi xodimlar bilan birga yashab kelmoqda.



"Hard Skills" ("Qattiq ko'nigmalar") bu ishchi-xodimning malakasi, amaliy tajribasi, til bilish darajasi, kasbiy iqtidori, texniki xususiyatlari hisoblansa, "Soft Skills" ("Yumshoq ko'nigmalar") bu uning ma'naviy, axloqiy, psixologik kompetensiyalari sanaladi. Yevropada bugunga kelib ish samaradorligini oshirishda "Yumshoq ko'nigmalar"ning o'rni beqiyos ekani tan olinib, bu bilan bog'liq malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar tashkil etilmoqda. Sodda qilib aytganda, xuddi "Ma'rifat"-

dagidek hamkasblarning inoqligi, bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsad yo'lida birlasha olishlari, ishga halol munosabatda bo'lib, fidoyilik va mas'uliyat bilan yondashishlari Yevropa ishchi-xodimlariga professor, oratorlar tomonidan o'rgatilmoqda. Qolaversa, ish menejerlari kelajakdagi kasbiy faoliyat haqida tajribaviy bashorat qilib, kelgusi davrlarda ishlash shakli "flexibel" ("egiluvchan") degan ma'noga ega holatga o'tishini dalillashmoqda. Kelajak nishonasi hisoblangan ushbu ishslash

shakli ham men faoliyat yuritgan dargohda allaqachon tarixga aylangan. Ya'ni "flexibel ishslash" deganda bu xodimlar o'z ish saatlarini o'zlarini belgilashlari, istasa o'z uyida yo ishxonada, istasa yarim tunda yoki dam olish kunlari bajarishlari, qisqa qilib aytganda, temir tartibdan natijaning ustuvorlik qilishi tushuniladi.

"Ma'rifat" haqida xotirlasam, hamkasb aka-opalarimning erta saharden kelib sokinlikda maqola yozishlari yoki ixtiyoriy tarzda tungacha qolib g'ayrat bilan ishlashlari, shamba, yakshanba kunlari ham ishxonaga kelib ijod qilishlari, buning uchun imkon va sharoit yaratilgan, butun dunyo "kelajak mevusi", deb maqtayotgan kutilmaga misol bo'лади. Demak, "Ma'rifat" oldindan! Zamondan, tajribalardan, rusumlardan, vaqtidan ham oldinlab yashamoqda. Nega shunday? Qanday qilib? Chunki... "chunki"ning davomini

Yevropada bugungi kunda rahbarlardan talab qilinayotgan yangi bir xususiyat "Ma'rifat" gazetasini rahbarlari tomonidan allaqachon eskirtirilgani bilan izohlamoqchiman.

Men hozir yashayotgan jamiyatda rahbarlar "boss" emas "lider" bo'lishi talab etiladi, ya'ni hukmron emas, boshqaruvchi. Talabalikni tamomlab, "Ma'rifat" gazetasiga ish izlab borganimda, koridordagi xodimlarning bosh muharrir xomasini ko'rsatib yuborishgandi. Eshikdan mo'ralab, adashib qolgan bo'lsam kerak, deb qaytib chiqmoqchi bo'ldim, chunki men bundan avval borgan tahririyatlarda ko'rganimdek bu xonada charmdan, hashamatli rahbarlar kreslosi ko'rinxasdi. Shunda odmigina o'rindiqda yozuv-chizuv qilib o'tirgan bir kishi kulimsiragan holda "Keling, singlim, nima xizmat?", dedi. Suhbatlashib bildimki, bu inson ushbu gazeta bosh muharriri Abdusamad Rahimov ekan.

Keyinchalik faoliyat yuritishim davomida bu insomning naqadar samimi, sofildi rahbar ekapli-giga amin bo'ldim. Qolaversa, o'rinosbasor va bo'lim muharrirlari ham xuddi bosh muharririmizdek kamtarin, oqko'ngil insonlar edi. Bo'lim muharririmiz Qurbonboy akadan ham biz shogirdlar otalarcha mehrni his etar edik. Biror tadbiriga intervyuga yuborsa, oylik yo'l chiptalarini tutqazardi, ishdan tashqari shaxsiy muammolari-mizga ham qayg'urib yurardi.

Sobiq ishxonam haqidagi bugungi dil so'zlarim negadir ilmiy tajribalar hikoyasi bilan izohlanib qoldi. Olis diyorda ilm-ma'rifat vajida ona-yurt sog'inchi bilan yashar ekanman, vatanimning bir parchasi sifatida hamisha ushbu dargohni qo'msayman va "Ma'rifat" bag'riga uning Ma'rifati bo'lib qaytgim kelaveradi.

Ma'rifat NUR
Hamburg, Germaniya



Maktab o'quvchisi paytligimizdayoq bu gazeta bizga juda qadrondan edi. Ayniqsa, "Jurnalist bo'laman" deb orzulay boshlagan menga. Bunday boshqa sabab ham bor.

1991-yili Respublika mustaqilligi e'lon qilingan vaqtida Forish tumanining Samarqand viloyati bilan chegarada joylashgan eng chet hududidagi 67-maktabning 6-sinf o'quvchisi edik. Respublikamiz oldida maktab darsliklarini tubdan yangilash, ularni mustamlaka mafkurasini singdirilgan g'oyalardan xalos qilish, mustaqil O'zbekiston talablariga javob beradigan tarzda qayta yaratish vazifasi turardi. Bir yil nari-berisida bu ishga qattiq kirishildi ham. Maktab, kutubxonalarlardan kommunistik mafkura singdirilgan kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari — barcha-barchasi yig'ib olindi. "Mafkuraviy ta'siri bo'Imagan kitoblar o'qitilishi mumkin", deyildi.

Lekin kommunistik mafkura targ'iboti kiring bormagan soha, yo'nalish, fan qolmagan ekan. Hatto, matematika darsliklarigacha singdirilgan. Hech bo'Imagan darslikning titul varag'iда ulug' kommunizmni ulug'lovchi bir jumla bo'lardi. Xullas, darsliklarsiz qoldik...

Maktabga boramiz. O'qishga darslik yo'q.

Jug'rofiyadan dars bergen rahmatli ustozimiz Mamadiyor Sheronov yozg'iradi: "Bu mafkurasiyam bor bo'lsin. Yetinchi sinf geografiya darsligida Nyu Yorkdagi yuz qavatlari binolar surati bor edi. Tagiga "Kapitalistik mamlakatlardagi urbanizatsiya jarayoni shunday binolar qurilishiga sabab bo'Imoqda. Kommunistik mamlakatlarda urbanizatsiya bunday halokati tus olmagan", degan mazmundagi izoh yozilgan ekan. "To'g'ri kelmaydi", deyishib geografiya darsliklarini ham o'qitishni man qilishdi".

1995-yili — o'ninchisini sinfga o'tganimizda darsliklar keldi. Kelganda ham to'liq keldi.

Ammo shu vaqtgacha — 1992—94-yillari, ya'ni yetinchi, sakkizinchisi, to'q-qizinchini sinflarda darslik o'miga gazeta o'qidik. Ha, aynan biz o'qigan maktabda holat shunday bo'ldi. Yaxshiyam gazetalar, jurnallar bor ekan. Ularning ichida ayniqsa, "Ma'rifat" gazetasi o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham ulkan ko'makchi, beminnat ustozga aylangan edi o'sha yillari.

Ulug' ajoddarlarimiz, ularning ilmiy asarlari, tariximiz, aniq va tabibiy, ijtimoiy-gumanitar fanlardan minglab maqolalar chop etilardi bu gazetada. O'qituvchilarimiz shu maqolalarni bizga o'qib berar, har tugul uzyvi bo'Imasa-da millat, xalq sifatida o'z o'rnimiz borligi, shunchaki buyuk proletarning bir qismi emas, jahon ilm-faniga, hatto ba'zi davlatlar jo'g'rofisiyasi yangiliklar kiritigan Buyuk bin elatning munosib vorislari ekanligimiz haqidagi fikrlarimiz shakllana borardi ularni o'qib.

Hozir, oradan o'ttiz yil o'tib bu gaplarni eshitgan kimsa "mubolag'aniam toza oldingizda" deyishi mumkin. Lekin bu gaplar aslo mubolag'a emas. Keling, bir voqeani aytib beray: bir kuni rahmatli Mamadiyor Sheronov ustozimiz darsga kirib kelib, plashining ichki cho'ntagidan uzunasiga ikki buklig'an "Ma'rifat" gazetasini olib, salom o'miga xitob qildi:

— Yozinglar! Bobokalon geograflar. Shunday deb yozinglar.

Barchamiz daftaramizga u kishi aytgan gaplarni yozdik. Ustoz gazetaga qa-

rab o'qiy boshladi. Mahmud Koshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Narshaxiy...

Shu tariqa qirqdan ortiq nomlar yozildi.

Menda savol tug'ildi:

— Mallim, — dedim qo'l ko'tarib, — Beruniy globus yasagan, o'zingiz o'tgan safar gazetadan o'qib bergandingiz. Qolganlari geografiya bilan shug'ullanmanagan-ku. Masalan, Ibn Sino tabib, Bobur shoh bo'lgan.

— To'g'ri, — rahmatli ustozim jilmaydi. — Ibn Sino o'simliklar jo'g'rofisi, Bobur esa o'zining "Boburnoma" sida barcha mamlakatlarning jo'g'rofisi ma'lumatlarini keltirgan. Qayerda joylashgan, relyefi, suv havzalari, oqar suvlari, o'simliklari va hokazo. Shuning uchun ular buyuk bobokalon geograflarimiz. Buni mana "Ma'rifat" yozypatti...

Ha, "Ma'rifat" bunday qimmatli ma'lumotlarni ko'p yozdi. Aytagimday u o'quvchi, ham o'qituvchi uchun darslik, o'quv qo'llanma, mafkuraviy immunitet manbayi, mushtarilar uchun esa to'g'ri ma'noda kelajakka ishonch uyg'otuvchi vosita edi.

O'sha yillarda...

Shu tariqa "Ma'rifat"ni tanigan edim.

1998-yili Toshkent davlat universitetining Jurnalistika fakultetiga o'qishga kirishni dilga tuyib, hujjat ko'tarib kelam, "Maqollalarigiz kam ekan. Imtiyongacha iloji boricha ko'paytiring. Inobatga olinadi!", deyishdi.

O'sha yillarda mashhur gazetalar "Xalq so'zi", "O'zbekiston ovozi", "Turkiston", "Hurriyat" va albatta "Ma'rifat" edi. Men o'ylab ham o'tirmay "Ma'rifat"ni tanlab, shu gazetada maqolalarimni chop ettrishga harakat qilmoqchi bo'ldim. Tahririyatga dastlab olib borgan maqolani tanqidiy ruhda bo'lib, chet tillar o'tilmayotgan maktablar va ularning imtihonga qo'yilmasdan sarson etilayotgan bitiruvchilar haqidagi edi.

Maqolani havaskorlikdan ham pastroq darajada yozilgani, ishonchsz dalillan-gani uchun muharrirlar chop etishmadidi. Biroq o'sha vaqtida mas'ul kotib yazifasida ishlayotgan ustoz sho'ri Ikrom Iskandar meni bosh muharrir Halim Saidov oldiga boshlab kirdi.

— Ustoz, bu yigit Abdulamid. Bizda bir-ikki narsasi chiqli. Hajviyalari yaxshi. O'qishga topshirayotgan ekan, maqolalardan g'amlab olay deyapti. Ruxsat berang sangz, biron bo'limga biriktiksak.

Halim aka o'sha paytlar o'ttizdan oshgan. Gazetaga bosh bo'lib kelganiga hali ko'p bo'Imagan, tahririyatda ulkan yangi-

lanishlarni amalga oshirishga chog'lanib turgan kezlar edi. Men bilan subbatashib ko'rgach, "Maktablar" bo'limiga biriktilib qo'yi. Birinchi tadbirga talaba, ham muxbir Faxriddin Karimov bilan birga chiqdidi. Xabar qanday yozilishi, ma'lumot yig'ishda nimalarga e'tibor qilish lozimligi, muxbir sifatida qanday muomala qilish kerakligini o'rgatdi u kishi.

Shu tariqa imtihonga qadar "Ma'rifat" gazetasining jamoatchi muxbiri bo'lib ancha-muncha material g'amlinadi...

2001-yili bu qutlug' dargohning chin ma'nodagi a'zosiga aylandim.

Bu vaqtga kelib "Ma'rifat" butun gazetchilar binosidagilar havas qilarlik tahririyatga aylangan, jamoada yoshlar ulushi qariyb to'qson foizdan oshgan. Bo'limlar bir-biridan dolzarb mavzularda materiallarni beradigan, tahririyatda barsha bo'limlar diktofon va kompyuterlar bilan to'liq ta'minlangan, moddiy-teknika jihatidagi ilg'or tahririyatga aylanib ulgurgan edi.

Har bir tashkilotning yutug'i yoki rivojlanishi rahbarning sog'lam fikrligiga, uzoqni ko'ra bilishiga bog'liq. "Ma'rifat"ning ham bu yutuqlari zamirida ustoz Halim Saidovning ijodkor sifatida mahoratliligi, tashkilotchi sifatida udaburonligi, rahbarlar bilan muomalada "diplomat"ligi yotardi.

Ustozning g'amxo'rligi bilan "Ma'rifat"da qanchadan-qancha yigit-qizlar ish o'rgandi, "tish yordi", "tili chiqdi", "qanon yozdi"...

Nurlan Usmonov ta'biri bilan aytaks "tramplin" bo'lib ketganlari ham bor. Lenkin bu boshqa masala...

Yaratgandan men hamisha minnatdor bo'laman. Qayerda ishlasmay hamisha yaxshi ustozlar, hamkasblarga ro'para qildi. Kishining taqdiriga birinchi ishlagan va ish o'rgangan joyi mutazam tarzda ta'sir ko'sratidi, degan gapga ishonomagan. Negaki, odam dastlabki joyidan orttirgan tajribasiga suyangan holda umri davomida ish tutadi.

"Ma'rifat"da kamtar bo'lish, ta'ma-girlik qilmaslik, xolislik va samimiyyat, haromdan hazar qilish, vatanparvarlik, millatparvarlik, ustozlarga hurmat, hamkasb va shogirdlarga e'tiborli bo'lish kabi sifatlar ustuvor edi. Chunki rahbarlar shunday bo'lgan.

Biz ishlagan vaqtida bosh muharrir Halim Saidov, o'rinbosarları Abdusalam Rahimov, Ikrom Bo'riboyev, mas'ul kotib Faxriddin Karimov, bo'lim boshliqlari Qurbonboy Matqurbanov, Husan Nishonov, Hulkar To'ymanova, Nurlan Usmonov, Kamoliddin Alioxunov, xuldas, barcha-barchasi samimiyyat kishilar edi. Ularning hech biri biz kabi oddiy muxbirlardan o'zini baland olganini, izzattalablik qilganini ko'rmadidi.

"Ma'rifat"da ishslash asnosida eng katta topgan xazinamiz rahmatli ustoz Mahmud Sa'diy bo'ldi. Bosh muharrir biz uchun ustozning maxsus o'quv kursini tashkil etgan edi. Tirk ensiklopediya, tahrirning piri, kitobning quli (H.Saidov ta'rifi). U kishining hech qachon shogirdlaridan vaqtini qizg'angani ko'rmadidi. Menga tahrir qilingan qo'lyozmalarini bo'yab-bejab tashlangan holda o'qishga berardi.

— Ma, jontoq, — derdi rahmatli. — Nega bunaqa payhon bo'lganini o'qib bilib ol.

Bo'yab-bejgalan qo'lyozma odatda tuzatishi olinib, yangi nuxsasi chiqarilgach arxivga olinar yoki makulaturaga tashlanan edi. Ustozning ularni saqlab qo'yishini o'shanda ko'rganman. Aniq esimda, ikki yilda ikki qog'oz qutiga (qutiyam kir mashina solsa sig'adigan quти) tahrirlab, tuzatishlari olingach tashlab yuborilgan qo'lyozmalarini o'qib chiqishga va tahlil qilib berishga majbur qilgan edi meni.

Bir safar qo'limga tahrir uchun maqola tutqazdi. Muallifini ko'rib, hurkib ketganidan, ustozga mo'ltiradim.

— Ha, — dedi shashtim qaytgani ko'rib.

— Muallifi akademik ekan-da, ustoz, — dedim.

— Nima, akademik bo'lsa shoxi bo'ladimi? — dedi ustoz bepisand.

— Endi u kishilarni tahrir qilish noqulay-da. Akademik bo'lganidan keyin zo'r ham yozishadi-ku, — deb ming'irlardim.

— Bekor aytibsani, — dedi ustoz. — Ay-nan shularni tahrir qilish lozim. Birin-chidan, maqolani hech qachon o'zlar yozishmaydi. Yo kotibasi yozadi yoki shogirdlari. Ular ham bir marta astoydil yozib berishadi. Keyin ustozining sullohligi joning tegib, sharitta u yer-bu yerdan ko'chirishga o'tishadi. Bu ko'chirilgan narsa akademikning imzosi bilan chiqib ketsa ana to'polon. Shuning uchun bizga o'xshagan muharrirlar kerak ularga...

Ustozning bunday saboqlarini esla-sam, sog'inchidan ko'zimga yosh keladi. Joylari jannatda bo'lsin, ilohim...

Agar bugun ortga, so'nggi yillarda mobaynidagi gazeta bosib o'tgan yo'lgan nazar tashlab aytish mumkin bo'lsa, tahririyatning gullab-yashnagan davri Halim Saidov rahbarlik qilgan davrlar edi, degan bo'lardim. Boshqa muharrirlar ham yomon ishslashgani yo'q. Gazetaning muassisilari nobop davrlarga to'g'ri kelishdi, xolos...

Ammo bu gazetaning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida albatta ga-pirish lozim.

Maqolani bejiz o'quvchilik davrlarimni xotirlashdan boshlaganim yo'q. Xalqimizning o'zligini anglashida chindan bu kabi gazetalar bebafo rol o'ynagan. Akvariumda tug'ilib, akvariumda yashab o'tayotgan, butun olamni tekis asfalt, soya-salqin xiyobonlar va beminnat vay-fay ishlab turgan ofislardan iborat, deb tasavvur etuvchi ayrim kishilardan farqli ravishda men shunday hisoblayman. Negaki, bu so'zlarining amalini boshimdan o'tkazgan, tanamda his qilgan avlod vakilim.

Elektron nashrlar davri kelgani, bosma nashrlar so'nggi damlarini boshidan o'tkazayotganini aytil tantana qilayotganlarga esa, aytar so'zim bitta: gap shaklda emas. Gazeta ham, jurnal ham, kitob ham mohiyatani ma'lumotni yetkazishga xizmat qiladi. Tarixa qarang: bir paytlar bozorlarda jarchilar axborot tarqatib yuri-shardi. Keyin sahilfargalarga yozib tarqatishdi, bu rivojlanib borib gazetachilik sohasi vujudga keldi. Jurnalista dastlab hunar, keyin esa ilm sifatida qaror topdi. Bungacha kelib elektron shaklga o'tyapmiz.

Ikkinchchi

— Ma, jontoq, — derdi rahmatli. — Nega bunaqa payhon bo'lganini o'qib bilib ol.

Bo'yab-bejgalan qo'lyozma odatda tuzatishi olinib, yangi nuxsasi chiqarilgach arxivga olinar yoki makulaturaga tashlanan edi. Ustozning ularni saqlab qo'yishini o'shanda ko'rganman. Aniq esimda, ikki yilda ikki qog'oz qutiga (qutiyam kir mashina solsa sig'adigan quти) tahrirlab, tuzatishlari olingach tashlab yuborilgan qo'lyozmalarini o'qib chiqishga va tahlil qilib berishga majbur qilgan edi meni.

Bir safar qo'limga tahrir uchun maqola tutqazdi. Muallifini ko'rib, hurkib ketganidan, ustozga mo'ltiradim.

— Ha, — dedi shashtim qaytgani ko'rib.

— Muallifi akademik ekan-da, ustoz, — dedim.

— Nima, akademik bo'lsa shoxi bo'ladimi? — dedi ustoz bepisand.

— Endi u kishilarni tahrir qilish noqulay-da. Akademik bo'lganidan keyin zo'r ham yozishadi-ku, — deb ming'irlardim.

— Bekor aytibsani, — dedi ustoz. — Ay-nan shularni tahrir qilish lozim. Birin-chidan, maqolani hech qachon o'zlar yozishmaydi. Yo kotibasi yozadi yoki shogirdlari. Ular ham bir marta astoydil yozib berishadi. Keyin ustozining sullohligi joning tegib, sharitta u yer-bu yerdan ko'chirishga o'tishadi. Bu ko'chirilgan narsa akademikning imzosi bilan chiqib ketsa ana to'polon. Shuning uchun bizga o'xshagan muharrirlar kerak ularga...

Ustozning bunday saboqlarini esla-sam, sog'inchidan ko'zimga yosh keladi. Joylari jannatda bo'lsin, ilohim...

Agar bugun ortga, so'nggi yillarda mobaynidagi gazeta bosib o'tgan yo'lgan nazar tashlab aytish mumkin bo'lsa, tahririyatning gullab-yashnagan davri Halim Saidov rahbarlik qilgan davrlar edi, degan bo'lardim. Boshqa muharrirlar ham yomon ishslashgani yo'q. Gazetaning muassisilari nobop davrlarga to'g'ri kelishdi, xolos...

Ammo bu gazetaning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida albatta ga-pirish lozim.

Maqolani bejiz o'quvchilik davrlarimni xotirlashdan boshlaganim yo'q. Xalqimizning o'zligini anglashida chindan bu kabi gazetalar bebafo rol o'ynagan. Akvariumda tug'ilib, akvariumda yashab o'tayotgan, butun olamni tekis asfalt, soya-salqin xiyobonlar va beminnat vay-fay ishlab turgan ofislardan iborat, deb tasavvur etuvchi ayrim kishilardan farqli ravishda men shunday hisoblayman. Negaki, bu so'zlarining amalini boshimdan o'tkazgan, tanamda his qilgan avlod vakilim.

Elektron nashrlar davri kelgani, bosma nashrlar so'nggi damlarini boshidan o'tkazayotganini aytil tantana qilayotganlarga esa, aytar so'zim bitta: gap shaklda emas. Gazeta ham, jurnal ham, kitob ham mohiyatani ma'lumotni yetkazishga xizmat qiladi. Tarixa qarang: bir paytlar bozorlarda jarchilar axborot tarqatib yuri-shardi. Keyin sahilfargalarga yozib tarqatishdi, bu rivojlanib borib gazetachilik sohasi vujudga keldi. Jurnalista dastlab hunar, keyin esa ilm sifatida qaror topdi. Bungacha kelib elektron shaklga o'tyapmiz.

dorulfunun...

Ertaga bir kun kelib, kishilarga tushlari orqali xabar tarqatamiz. Ammo mohiyat birlab o'zgarmaydi.

Mohiyat ma'lumotni yetkazish bo'lib qolaveradi...

"Ma'rifat" bosma nashr sifatida 90 yil yashadi. Yana shuncha vaqtini ham bosma, ham elektron nashr sifatida, undan so'nggi ming yilni elektron, qolganlarini biz tasavvur ham etolmaydigan shaklda yashab o'tishi men shubha qilmayman...

Gohida o'zimga savol beraman: "Ma'rifat" men uchun nima?

Shubhasiz, dorilfunun. Ikkinci dorilfunun.

Bugun Prezident Administratsiyasidan tortib mamlikatning turli korxonalar va tashkilotlarda ishlayotgan kishilar agar ozgina bo'lsada bu tahririyatda xizmat qilgan bo'lsalar so'zimni quvvatlaydilar. Chindan ham bir qalamkash sifatida "Ma'rifat" dan bir umrlik saboqlar oldik.

Dorilfununimiz 90 yoshni qarshilamoqda.

Yubileyi muborak bo'lsin!

Ayni vaqtida unga darg'aliq qilayotgan Husan Nishonov ustozlarining yo'lini, an'anasi, odatlarini davom ettirmoqda. Uning murosasiz intilishlari sabab gazeta 2021-yili nufuzli "Oltin qalam" mukofotiga munosib ko'rildi. Muvaqqatiyatlardan bardavom bo'lsin!

"Ma'rifat" gazetasida ishlagan yillarim bo'lib o'tgan hangomalarlardan bir shingilimi esa shirin xotiralarining tabassumli ifodasi sifatida mushtariylarga ilinanman.

Hangomalar

Taniqli shoir, "Ma'rifat"chi ikrom Iskandar poytaxtda ishlayotganiga qaramay uy-joy masalasida qo'nim topmagan, yana bir ijodkor do'sti Bahriiddin Abu Said bilan bitta uyda ijara turar edi. Bir kuni do'stlar xayol surib, orzu-umidlariga berilib ketdi. Azbaroyi orzulari qaynab ketgan ikrom Iskandar, "Eh, Xudo ol qulim deb, to'rt xonali uy berib qolsa", deb yubordi.

— Qaniyi-ya, — ko'zlarini yonib ketdi Bahriiddin Abu Saidning, — ikki xonasini mena berib turar eding.

— Nega berar ekanman? Hech ham bermayman, — deb norozi to'ng'illadi ikrom Iskandar.

Do'stining zignaligidan biroz hayron qolgan Bahriiddin Abu Said uni insofga keltirish uchun izoh berdi:

— Butunlaymas, ijaraga. Faqat bepul ijara.

— Yo'q, — yana ko'nmadni ikrom Iskandar.

— Hoy odam, ja bo'limasa pulini to'lab turay, — jahli chiqdi Bahridin Abu Saidning.

— Yo'q dedimmi — yo'q.

— Buncha qizg'anchiq bo'lmasang. Senikidan boshqa qayergayam borardim, uyim bo'limsa

nima qilay axir, — yig'lamsiradi Bahriiddin Abu Said.

Ikrom Iskandar esa bunga javoban to'ng'illadi:

— O'zing orzu qil!!!

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalista Abdusamad Rahimov qadrondorlaridan birinikiga to'y oldidan sabzi to'g'ra borib, boshqalarda oldinroq ketishga taraddulana boshlaganini ko'rgan yana bir jurnalista Muhammadali Qo'shmoqov so'z o'yinini boshlab qopti:

— Ha, Abdusamadjon. Bu deyman "putevoy list"ga kech soat sakkizagacha imzo chekilgammagi yoki rostan ham xotindan qo'rqa sizmi?

— Rostan ham qo'rqaqiz, Muhammadi aka, — debdi Abdusamad Rahimov. — Negaki, putevoy kaning vaqtini tugagandan so'ng ishimiz ayrimlarga o'xshab televizorgamas, xotina tushadi.

Roza opa "Ma'rifat"ning bosh hisobchisi edi. Shu opa bir kuni bosh muharrir Halim Saidovga shikoyat qilibdi. Emishki, bir chapaqay muxbir oylik ish haqiqi hujjatlariga uch xil imzo qo'yib berganmish. Buni tekshiruvchilar ko'rib qolishsa oqibati yaxshi bo'lmas emish.

Halim Saidov darhol chapaqay muxbirni chaqirib tushuntirish xati yozishni talab qilibdi. Muxbir ham birpasda yozib bergach, qutulganga shukr qilib juftakni rostlabdi. Roza opa ish yaxshi yechim topganiga xursand bo'lib, tushuntirish xatiga ko'z tashlagach, yana hafsalasi pir bo'ladi.

Negaki, chapaqay muxbir "endi har xil imzo qo'yamman, meni kechiringlar", deb to'rtinchil xil imzoni qo'yib ketgan ekan.

Yangi ish boshlagan kezlarim mas'ul kotib Faxriddin Karimov qo'limga surat tutqazib, "qani, shunga bir tagso'z yozing-chi", deb qoldi. Garchand tagso'z nimaligini bilmasam-da, sir boy bermay "xo'p", dedim.

Jo'raqul aka degan korrektor akamiz bo'lardi. Juda xokisor edi-da. Shu kishining oldiga sekin borib, "Jo'raqul aka, tagso'zni qancha yozish kerak", deb so'radim. Ishidan to'xtab, yuzimga birpas termulib qoldi-da, keyin oldida turgan bir varaq qog'ozni ko'tarib siltadi.

— Shuncha bo'lsa bo'ladi.

Shartta o'tirib suratga termulgancha undan falsafiy ma'nalari axtarib, xayolimga kelgan so'zlarni yoza ketdim. Birpasda bir qog'oz to'ldi. Ko'rsatib so'radim: — Bo'ladi?

— Jo'raqul aka hayron bo'ldi:

— Bo'ladi. Urug'ingizda baxshi o'tganmi?

Abdulhamid MUXTOROV,
"Zyo" mediemarkazi direktori,

Xalq ta'limi a'lchisi,

Yo'zuvchilar uyushmasi a'zosi



"Ma'rifat" xuddi og'ir, bosiq, vazmin bir mo'ysafidga o'xshaydi... Unda berilayotgan maqlolalar ham, yengil-yelpichilikdan uzoq... Uning jamoasi ham xuddi o'zidek bag'rikeng, mulohazali, oriyatli, oliftagarchilikdan yiroq...

Vazmin donishmand

Mutaxassis sifatida mana shunday ma'rifatli muhitda shakllanganim hali-hanuz o'zining belgilarini bildirib turadi: biror materialni yozishdan oldin obdon o'yayman, "jurnalista xato qilmasligi kerak" deya singdirilgan aqidaga sodiq qolishga harakat qilaman.

To'g'ri yo'l maktabi

Ilk bor talabalik davrimda "Ma'rifat"da qoralamalarim chiqib, ishga kirish arafasida bosh muharrir Halim Saidov "aval yaxshi pishib yetilish kerak, shunda materiallarni jonli chiqadi" degan edi. O'sha paytda bosh muharrirning birinchi o'rnibosari Abdusamad Rahimov bog'chalar haqida yozishga yo'naltinganida o'zimcha xafa bo'lganman. Talaba bo'lganligim uchun oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim bo'limida ishlash, o'sha mavzuda yozish qiziq tuyulgan. Lekin ustozning shu gaplari haligacha esimdan chiqmaydi:

— Bog'cha haqida hamma ham yozavermaydi. Agarda shu sohaga ixtisoslashgan yaxshi jurnalista bo'lsangiz, meni aytdi dersiz, eng talabgir mutaxassislardan bo'lasiz...

Shunday deya ustoz maktabgacha ta'lim bo'yicha yozganlarimni sinciklab tahrir qilishdan erinmadi. Xatolarimni tuzatishga, kerak joyda qayta-qayta yozdirishga hafsa-la topdi. Esimda, bir oy davomida bog'chada kuzatuvi olib borib yozgan maqlolarni boshqatdan yozishni aytgani g'alati ahvolga tushganman. Lekin birma-bir xatolarimni, e'tibor qaratmagani tomonlarimni tushuntirganidan so'ng, shu maqlolani boshqacha maqsadda yozgandim. Tahririyat tanlovida shu maqlolam g'olib chiqqandagina bog'chalar haqida yozishni davom ettirish bo'yicha aniq to'xtama kelganman. Va bu to'xtam maktabgacha ta'limga ixtisoslashgan jurnalista bo'lib yetishmidagi Abdusamad Rahimov ko'rsatgan to'g'ri yo'l edi.

Bag'rikenglik maktabi

Halim Saidov bosh muharrirlik davrida xodimlarning ko'philigi yoshlar edi. Ustozi ularning oиласида muammosini ro'zg'orida kamchiligi bor-yo'qligini yo'lyo'kay so'rab, surishtirardi. Bir kuni ikkiqtat tengdoshimiz pulga ehtiyoji borilgini bizga aytgandi. Bu gap bosh muharrir qulog'iga yetib borganmi yoki sezganmani, shu hamkasimini chaqirib, hech qanday gapso'zsiz "moddiy yordamga ariza yozing" deb vaziyatdan qutqargandi. Bu holatlar bizdek yosh mutaxassislar uchun bag'rikenglik maktabi edi.

Mas'uliyat va havas maktabi

Hulkar To'ymanovning o'z ishiga mas'uliyat bilan qarashidan o'zimdag'i dengasalalikni yengishni o'rganganman. Bugungi ishni ertaga qo'ymaslik, gazeta ishini boshqa ijtimoiy jarayonlardan yuqori qo'yish, farzandlariga e'tiborli bo'lish kabi ko'p xislatalar bizga "Ma'rifat"da bir maktab bo'lgan. Hulkar opa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalista unvonini olganida juda havas qilganman. Kamtar, o'zining ishiga puxta mutaxassisning shunday unvonga sazovor bo'lganidan xursand bo'lgan-

man. Bularning hammasi mas'uliyat va havas maktabi edi.

Yelkadoshlik maktabi

Sharifa Madrahimova, Nazokat Kolmetova, Zuhra Ro'ziyeva, Nargiza Jovmirzayevalar bilan tengdosh qatori jamoada ishlardik. Tushlik qillardik, yaxshi kunlarimizda birga xursand bo'lardik, dardlashardik. "Ma'rifat" ikkinchi uyimiz edi. Biror marta bo'lsa ham shu jamoaga oyog'im tortmasdan kelmaganman yoki xasa bo'lib ostonasidan chiqmaganman. Hayotiy muammolarimiz ham xuddiki tahririyatda hal bo'ladigandek tuyg'u bor edi. Chunki ustozlarimiz qatori tengdosh hamkaslarimiz bilan hamfikr edik. Bu yelkadoshlik maktabi edi.

Odamiylik maktabi

Operatorlar xonasi har bir xodimning ko'nglini ochish nuqtasi edi desam adashmayman. Qutbi onanig va Dilobar Ergashevning yorug' yuz bilan har birimizga sinchkov boqishi, doim tayyor bir piyola choy bilan siylashi, dardlarimizni tinglashi, kezi kelganda kimningdir muammosini gazak oldirmasdan shu yerda hal etilishi ham odamiylikdan darslar bo'lganligini endi anglayapman.

Ezgulik maktabi

15 yil mobaynidagi "Ma'rifat"da o'tgan har bir kunim bir saboq bo'lganligini deyarli har kuni xotirayman. Turli tanlovlardan, musobaqlardan o'zimizning ustimizda ishlashga undashi bilan jamoada birdamlik, hamkorlik rishtalarini ham mustahkamlardi. Esimda, har yili ramazon oyida iftoriyat dasturxonida jamaot jamuljam bo'lardi, tarbiyaviy va hayotiy suhbatlardan bahramand bo'lardik. Qariyalar, ehtiyojmandlar, faxriyalar holiidan xabar olinardi. Bularning hammasi ezgulik maktabi edi...

Professionalizm maktabi

"Ma'rifat"da mualliflar bilan ishlashning o'ziga xos an'anasi shakllangan edi, desam mubolag'a bo'lganligi. Sababi, bizga ustozlarimiz har bir kelgan maqlolaga e'tiborli bo'lishni, birorta maqlola(albatta pichoqqa ilinadigani) e'tiborsiz qolishi kerakmasligini, qisqasi hech bir muallif tahririyatimizdan noroza bo'lib ketmasligini uqtirishgandi. Shu sabab har bir jurnalista sodiq mualliflari bo'lardi, shu qatori mening ham. Ularning materiallarini qayta-qayta ishlab, gazeta talablariga moslardik. Ayni jarayonda o'zimiz ham pishardik. Bu haqiqiy professionalizm maktabi edi.

Xos saboqlar maktabi

Tahririyatda deyarli har kuni ilm ahli darg'ali, taniqli ijodkorlar, o'qituvchilar tashrif buyurishardi. Ular bilan ustozlarimizning suhbat-u munozaralar olib borishini kuzatib, hech bir maktabda o'qitilmaydigan darslardan saboq olardim. Shundan bo'lsa kerak, bu jamoadan uchirma bo'lgan mutaxassislar bosha tashkilotlar o'ziga xos e'tibor bilan qabul qilishgan.

...Bunday xotiralarini bir maqlola, hatto bir kitobga ham sig'dirib bo'lmaydi. Chunki bu xotiralar meni nafaqat mutaxassis sifatida, balki shaxs sifatida ham shakllantirgan Shu sabab "Ma'rifat"ning chizgilarini hayot yo'llarimga doimo hamohang.

Qayga bormay, "Ma'rifat"ni izlayman!



Mening suyagim "Ma'rifat" gazetasida "qotgan". Talabalik paytimiz ustoz Halim Sayyid auditoriyaga kirib, gazetada har yili o'tkazildigan "Ma'rifat" mahorat maktabi"ga tanlov ketayotganini e'lon qildi. Bir-ikki dugonam bilan qiziqb bordik. O'sha yerning o'zida bizga maqola yozdirishdi. Yozgan qoralamalarimizga qarab qabul qilishdi. Buni qarangki, uch dugonanining ichidan men o'tdim. Master-klass davomida o'qigan 15 nafar talaba ichidan esa uch nafiga tahririyatda ishga qolish nasib qildi. O'sha uch nomzodning biri ham men edim.

Meni ustoz Mahmud Sa'diyning qo'liga topshirishgan. Rahmatli ustoz men yozib kelgan xabarni "bir tiyinga qimmat" deb otib yuborgandi. O'shanda rosa yig'laganman va bu sohani tanlaganimga afsus-nadomatlar chekanman. Keyin bilsam, ustoz mening qanday olamga, qanday sohaga tushib qolganim-u so'z mas'uliysi qanday ekanligini o'ylab, tanamdan o'tkazib, tafakkur qilishim uchun shunday qilgan ekan. Ushbu tanbehdan keyin men ketmadim, aksincha, ustozning eng yaqin shogirdlaridan, dastyor yordamchilaridan biriga aylandim.

"40 tuyadan kamiga bermay-miz!"

Tahririyatda qizlarni ko'z qora-chig'idek asrashardi. Ularning tarbi-

yasi, xulq-atvoriga ota-onadek, mehribon buvi-buvadek mas'uliyat bilan qarashardi. Ayniqsa, bosh hisobchimiz Asomiddin aka "Seni qirq tuyadan kamiga bermaymiz", deb hazillashardi. Taqdir ekan, hamkasbim Nazokat opalarning xonadoniga kelin bo'ldim. Qalin pulim qirq tuyadan kam emasimi, yo'qmi juda qattiq nazoratga olishgan.

Inson hayotida muhim bo'lgan qadamlardan biri o'ziga mos umr yo'ldoshi tanlashdir. Bu — lotoreya. Hayot biz o'ylagandek bir tekis yoki bekam-u ko'st emas. To'g'ri, qayerdan shu tahririyatda ko'p qolib ketganman. Agar boshqa joyga ishga o'tib ketganimda bu nikoh ham bo'imasdi, degan fikrlar ham o'tgan (chunki tahririyatdagi barcha opalar kuyov to-

monni rosa maqtashgan-da). Lekin tafakkur qilib, Olloho bergan ne'matlarni xayoldan o'tkazib, bu fikrimdan o'zim istihola qilganman. Ayni paytda esa "Ma'rifat"da baxtimni topganman, deb baralla ayta olaman.

Bu tahririyatda ishslash ko'pchilikka armon ekan...

Taqdir bo'lib, boshqa gazetaga ishga o'tdim. To'g'risi, sevimli maskanimni tark etish oson bo'lmagan. Sizga yolg'on, menga chin, aksariyat hamkasblarimiz "Ma'rifat"chilarga havas bilan qarashardi. Bizni professional kadr sifatida e'zozlashardi (Maqtanishni qarang!).

Keyin bilsam, o'sha tahririyatga men kabi yangi ishga o'tgan jurnalistlarning ko'pchiligi "Ma'rifat"da ishslash, uning muhitidan bahramand bo'lishni juda xohlashgan ekan. Ba'zilari ish so'rab borganida bo'sh ish o'rni bo'lmagan, ba'zilari chaqirishganda bormagan, ayrimlari esa barcha ishini tashlab, shu joyda ishlayman, deganida tahririyatda xodimlar qisqarishi boshlangan. Xullas, nasib qilmagan. Ularning "Ma'rifat"da ishlay olmaganligi" bilan bog'liq alamli xotiralari bor. Shularni eshitib turib, Olloho bizni shu tahririyatda ishslash, mehnat qilish, us-

tozlar tajribasidan bahramand bo'lish baxti bilan siylaganidan ich-ichiimdan xursand bo'lib ketaman.

Qayga bormay, "Ma'rifat"ni izlayman!

"Inson yaxshi ko'rgan ishi bilan shug'ullansa, u ishlamaydi, dam ola-di", deyishadi. Kishi o'z kasbini sevishi va mehr qo'yishida muhitning o'rni va hissasi katta.

"Ma'rifat"dan keyin ikkita tashkilota faoliyat olib bordim. Ulardagi muhitni yomon deyishdan yiroqman. Lekin negadir qayerga bormang, ilk ishlagan joyingdaggi muhitni izlayverar ekansan. Yaxshi oylik hamma joyda bor, shart-sharoit ham qayerga bormang, yetarlicha topiladi. Ammo "Ma'rifat"dagi iliqlik yo'q, samimiylig yo'q...

Albatta, yaxshi muhit nisbiy tushuncha. Uni har kim o'zi istagancha va o'z qadriyatlaridan kelib chiqib tasavvur qiladi. Hayotim davomida yomon muhit ko'rmasdim. Bundan keyin ham ko'rmayman degan umiddaman. Lekin ko'z ochib ko'rganim "Ma'rifat"-dagi iliqlik, samimiylig, odamiylik kabi xislatlarni mushtarak holda uchratolmasam kerak.

Sohiba MULLAYEVA,
O'zJOKU tuyanch doktoranti

50 yillik hamrohim

Azim Toshkent shahrining Olmazor tumanidagi 133-maktabda o'qiganman. Ona tili va adabiyot fanidan o'qituvchilarimiz Muborak Hamidxo'jayeva, Nuriddin Qamariddinov, Zuhreddin Hasanovlar 5-8-sinfda so'z san'atining sehridan bahramand etganlar. 8-sinfdan boshlab O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, sho'r Sabriddin Sadreddinov, 9-10-sinflarda esa "O'qituvchilar gazetasi" bo'lim muharriri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan journalist Ja'far aka Ma'rupov o'rindoshlik asosida ishlab, bizda adabiyotga bo'lgan qiziqish, ijodga ishtiyoyq uyg'otgan.



1971-1972-yillarda Ja'far aka matbuotimiz hayoti yoritilgan, suratlarimiz chop etilgan "O'qituvchilar gazetasi"ni biza ga ko'rsatib, lavha va maqolalarni o'qib berardi. Shunda biz gazetani qo'limizga olib mutolaa qilardik. Bunga ham 50 yil bo'libdi. Keyinchalik ustozimiz bizni ham kichik-kichik xabarlar yozishga undadi. 1979-yilda ilk bor "Ma'rifat" (u vaqtida "O'qituvchilar gazetasi")da "Nuqtali vergul signallari" nomli maqolam chop etildi. 18-fevral kuni fotiha to'yimiz edi. Xuddi shu kuni gazeta ham qo'limiga tegdi. Otajonim barcha oila a'zolarimizni bir dasturxon atrofiga jamlab, menga maqolalarni boshidan oxirigacha o'qitdi. Avval maqola bilan, keyin fotiha to'yimiz debochasi bilan qutlab ustozimni duo qildilar. Bu hayotimdagisi eng unutilmas kun bo'ldi. Hozirgacha bu gazetani ko'z qorachig'idek asrab kelman, bar zamonda olib o'qiyman va ustozlarim haqiga tilovat qilaman.

Talabalik yillarda ustozim kabi gazetada ishslashni niyat qilardim. Ish-faoliyatimni maktabda davom ettirdim, dars ishlamalarim gazetada chop etila boshladni. Fan olimpidalarida, ko'rik-tanlovlardan hakamlar hayat a'zosi edim, darhol xabar yozib "Ma'rifat"ga berishga oshiqardim. Xabarlarim ham bosilib chiqardi. Ko'nglimda esa bir orzu yashardi. Qaniyi, "Ma'rifat" gazetasida ishlasam. Matbuotchilar ko'chasidagi 32-uy, 7 qavatlari binoga she'r, maqolalarimni oborardim. O'shanda "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida o'rindoshlik asosida ishlandim. Jurnalning har bir soniga taqriz yozib bosh muharriq o'rinosari Abdusamatad Rahimovga olib borardim. Bir kuni Abdusamatad Rahimov "Opa, gazetada ishlaysizmi, dushanba kunlari kelsangiz bo'ldi, bizga muktab hayoti, darsliklarni biladigan, bir soatlik dars ishlamalarini ko'rib beradigan o'qituvchi — journalist kerak", deb qoldi. Garchi bu ko'p yil-

lik orzum bo'lsa-da biroz ikilandim, to'g'risi, eplay olarmi kina man deb hadiksradim. Qolaversa, she'r, maqolalarimni gazetada chiroli tahrir bilan chop ettingan bu jamaoga hurnimat cheksiz bo'lgani uchun ular bilan ishslash katta baxt edi. Shunday qilib, 1998-yilden "Ma'rifat"da maxsus muxbir bo'lib ish boshladim. Bosh muharrir Halimjon Saidov samimiy, hammaga birdek, betakror rahbar edi. Tahririyat xodimlariga bayramlarda sovg'alar ulashilar, yangi kitoblar tuhfa etilardi. Ibrohim G'afurovning "Hayo fazilatdir", "Mangu lahzalar", Halim Saidovning "Bu dunyoga keldingmi, tolibsam" kitoblari dastxatlari bilan barchamizga berilgan.

"Ma'rifat"da "Mehmonxona" safisasi uchun suhbatsdoshlarni Husan Nishonov tanlab, yillik reja tuzib qo'yari edi. Quvonchliisi, men ham shu ro'yxatda bo'lganman. Yurtimizning taniqli ijodkorlari, olimlar bilan suhbatalashib

maqolalar tayyorlash jarayonida darslarim uchun ko'p materiallar yig'ganman. Jumladan, akademik Aziz Qayumov, Azim Hojiyev, O'zbekiston xalq artisti Faxreddin Umarov, xalq shoirlari va yozuvchilar Xudoyberdi To'xtaboyev, Po'lat Mo'min, Halima Xudoyberdiyeva, Odil Yoqubov, ijodkorlar Norqobil Jalil, Vafo Fayzullo, kinorejissyor Isamat Ergashev, bolalar xorri "Bulbulcha" das-tasi rahbari Shermat Yormatov, ustozimiz Umarali Normatov va boshqalar bilan suhbatalashish qalbimni nur, ziyo bilan yoritgan, faxrqa to'ldirgan. Bu suhbatar sabab Odil Yoqubov, Aziz Qayumov xonadonlarida ko'p bora mehmon bo'lganman, ularning ham muborak qadam-lari xonadonimizga yetgan.

Halimjon Saidov har bir tashabbusni qo'llab-quvvatlaridi. O'qituvchilar bilimini sinash uchun test savollari tuzardik, g'oliblarga esa kitoblar sovg'a qilardik. Albatta, homiyimiz bosh muharrir edi.

Yana bir quvonchli jihat, "Ma'rifat"dan ko'plab do'star topganman. "Yoshlik daf-tari kerakmi?", "Faxriy yorliq necha pul?", "O'quvchi dars tayyorlamasa" maqolalarim chop etilgach, aks-sadolar berilgan. Kattaqo'rg'onlik muallima Aziza Boymurodova bu maqolalarga o'z fikrini bildirardi. Keyinchalik biz tanishib, do'stlashib oldik. Azizaxonning "Izhor'i", menga atab yozgan she'rleri ham "Ma'rifat"da chop etildi. Bu juda noqlay edi,

biroq do'stlik, mehr g'olib chiqdi, garchi o'zim shu gazetada ishlasamda, Halim Saidov, Husan Nishonovlar bu izhorlarni chop etilishiga sababchi bo'lishdi.

"Ma'rifat" jamoasi ahil, bir yoqadan bosh chiqaradigan, bir-birini qadrlaydigan xodimlarni birlashtirgan edi. Hozir ham bu an'ana davom etib kelmoqda. Bu dargohda ishlab ketgan xodim borki, gazetadan minnadtor. Maktablar bo'limida Qurbonboy Matqurbanov, Nurlan Usmonov, Bahodir Jovliyev bilan ishlaganman, shu kungacha opa-ukadek bir-birimiz bilan qadrnomiz. Bayramlarda bir-birimizni qutlaymiz.

Oly toifali o'qituvchi bo'lishimda "Ma'rifat"ning o'rni beqiyos. Negaki, eng yaxshi dars ishlanmalari, noan'anaviy usulardan foydalaniib dars o'tishga harakat qildim.

"Yil o'qituvchisi" ko'rik-tanlovining shahar, respublika bosqichlarida material tayyorlash, jarayoni yoritish asnosida eng kuchli o'qituvchilarim darslarini kuzatdim. Undagi yangi usullarni darslarimga tabtiq etishga harakat qildim. Bu birgina mening faoliyatimga taaluuqli emas, balki turli viloyatlardagi o'qituvchilarining ham fikri. O'qish, o'rganish boy xazina, u ilm, metodikani o'rgatadi. "Ma'rifat" ana shunday xazina, undan bir umr minnadtormiz.

Mahmuda VALIYEVA,
Yunusobod tumanidagi
274-maktab targ'ibotchisi,
"Sog'lom avlod uchun"
ordeni sohibi

"Nega men "Ma'rifat"ni burchalik yaxshi ko'raman?"



Ota-onam o'qituvchi bo'lgani uchun mening "Ma'rifat" bilan "uchrashuvim" ancha erta boshlangan. O'sha paytlari uyimizga kunda-kunora gazetalar kelar, ular orasida "Ma'rifat" alohida qiziqish bilan o'qilardi. Dadamning hujjatlari tegishga biroz hayiqqanimdanmi, taxlam holdida tokchaga qo'yilgan gazetani qo'l tekkizmagan holda o'qyl boshlardim. Tabiiyki, biroz vaqt o'tgach qiziqishim hayiqishdan ustun kelib, gazetani to'liq o'qib chiqardim. Mana shu qiziqishim sababidan gazeta taxlami orasidagi ba'zi hujjatlar ukalarim qo'liga tushib qolib, ularning ustiga "ajoyib rasmlar" solingani va buning ortidan yaxshigina dakki eshitganlarim ham esimda. O'shanda kelajakda taqdirmay aynan shu gazeta bilan bog'lanishi xayolimga ham kelmag'an bo'lsa kerak...

Talabaman. Ikkinchisi kursni bitirish arafasida respublika gazetalaridan biriga musahih sifatida ishga qabul qilindim. O'zimda yo'q xursandman. Xursand-chiligimni ota-onam bilan bo'lishgim kela-di. Meni tabriklashadi. Lekin baribir dadam mening "Ma'rifat" gazetasida ishlashimni orzu qilishi sezilib taruri eddi. Ba'zan "Ma'rifat"ga ham maqola yozib tursang bo'lar ekan", deb qo'yardi. Men esa boshqa tahririyatda ishlashim, "Ma'rifat"ga maqola yozish uchun qayergadir borib ma'lumot to'plashim kerakligi, ayni paytda ishlayotgan tahririyatning yo'nalsishi unga sira mos kelmasligini aytardim. "Adabiyot o'qituvchisining o'g'lisan-ku, axir, adabiyotni ham yaxshi bilasan, qanchadan-qancha ajoyib g'azal va ruboysiylar bor, shularni sharhlab chiroli maqola yozsang ham bo'ladi", degandi dadam bir kuni maslahat onhangida.

Negadid bu tahririyatga yaqin kelishga botina olmasdim. Ayniqsa, talabalik yilla-rimda bu dargoh men uchun qo'l yetmas orzu edi.

Ming shurkrki, keyinroq bo'lsa-da, mana shunday baxt menga nasib etdi. 2004-yili "Ma'rifat" gazetasiga ishga o'tdim. O'n yildan ortiq vaqt mobaynida shu tahririyatning tuzini totdim. Bu davrda "Ma'rifat" men qator yuzlab yoshlarga hayot va ijod maktabning umutlimas saboqlarini berdi.

Bugun esa sevimli gazetam, yo'q-yo'q, gazeta emas eng aziz va qadrdon "ustozim"ning 90 yillik yubileyi arafasida u haqda ko'nglimagi samimi etirfomimni izhor etish baxtiga musharrarf bo'lib turibman. "Ma'rifat" mening tasavvurimda gazeta tahririyati sifatida emas, mehrbon va g'amxo'r, tuyug'imdani quvonib, g'amidimdan ozor chekadigan yaqin bir insomim timsolda gavdalananadi.

Ba'zan o'yab qolaman. Nega men "Ma'rifat"ni burchalik yaxshi ko'raman? Yoshligimda unga nisbatan uyg'ongan mehr va havas tufaylimi? Balki, jurnalist sifatida dastlabki yirikroq maqolam shu gazetada e'lon qilingani uchundir...

Yo'q, menimcha unday emas. Yosh-

ligimda qanchadan-qancha qalbimda kuchli havas uyg'otgan narsalar bor edi, bugunular men uchun avvalgidek qadrli emas. Maqolaga kelsaks, bu ham ko'nglimagi savolimga qoniqtirgudek javob bo'lilmadi. Unda nima uchun?

Bugun shu maqola bahona, meni ko'p yillarderi beri o'ylantirib kelayotgan savolga javob topishga urinib ko'ray-chi!..

"Ma'rifat" gazetasida ish boshlagan birlinchi kunimdayoq e'tiborimni tortgan jihat shu bo'lgandiki, bu yerdagi nihoyatda ahil jamaoa shakllangan ekan. Yosh muhibbilar bilan ustoz ijodkorlar o'rtasidagi samimi munosabat har qanday kishining havasini keltiradigan darajada edi. Qutbining ona, Dilobar opa singari harf teruvchi opalar yosh jurnalistlarga shu qadar mehr ko'rsatdi, bu haqda alohida bir kitob yoza bo'ladi.

Qo'lyozma maqolalarni olib kirgani-nigizda xonadan biror yaxshi so'z, biron shirinlik bilan siylanmasdan chiqib keta olmasdingiz.

Shu boismi, Qutbinisa opani tahririyatda hamma "ona" deb chaqirap edi. Boshida bu holatdan ajablangan bo'lsamda, hech qancha vaqt o'tmay men ham bu munis ayolga ona deya murojaat qildigan bo'lib goldim. Bu inson haqiqatan ham bizga ona kabi mehr ko'rsatar edi. Dilobar opadagi sezgirlik, xushmuomalik esa musofirchilik achchig'ini totib yurgan biz kabi yoshlarni qalbiga qiyosini hech narsa bilan o'lehab bo'limaydigan malham edi. Ayrim paytlari rahbarlardan biroz dakkib eshitib, asabiyashgan holimizni ko'rsa, darrov buning sababini so'r va o'sha rahbarimizning biz haqimizda avvalroq aytgan qaysidir iliq so'zlarini aytib ko'nglimizi ko'taradi. Qurabsizki, ko'ngildagi xijillik yozilib ketishi bilan birga, biroz oldin sizni urushgan rahbarga nisbatan ham zarracha gina qolmasdi.

Bosh muhibbirimiz Halim Saidov ja-moada ahillik va insoniylikni birlinchi o'ringa qo'yari edi. Biroz xodimdan achiqlangan paytlari ham kimdir uning

yonini olsa, jo'rttaga "siz uning yonini olaver mang", derdi-yu, aslida jamao-dagi bu ahillikdan xursus bo'lgani yuzko'zidan bilinib turardi. Bir kuni qaysidir xodim ishga juda kech qoldi. Aksiga olib, uning qo'liga o'sha kuni songa tayyorlanishi kerak bo'lgan material bor edi. Bosh muharrir qattiq asabiyashdi. Shunda hammamiz "ona" deb ardoqlaydigan Qutbiniso ona yurak yutib, bosh muharririga yuzlanib: "Halimjon, u ham bola-chaqam deb shu kunsarda sal qynalib yuribida, shunga kech qolayotgan bo'lsa kerak", dedi. O'sha kuni Bosh muharririni vajohati boshqacha edi. Men ham "endi tamom, bu hamkasibimiz ishdan haydalsa kerak", deb o'yladim. Lekin uning javobi o'sha voqeaga guvoh bo'lganlarning barchasining ko'ziga yosh keltirdi, desam ishoning: "Onajon, - dedi bosh muharrir keskin ohangda, - bu yerdagi o'rn, bolam-chaqam demaydigan inson bir kun ham ishlamaydi". Bu javob naqaflat o'sha xodimning kechirilgani alomati edi, balki barchamizga ulkan hayotiy saboq ham bo'lildi. Axir shunday ahil jamaoni sev maybo'ladi.

Gazetamizda "Oyning eng yaxshi ijodkor" degan tanlov bo'ldi. Unda gazetamizda bir oy mobaynida e'lon qilingan materiallarni orasidan eng saralar ovoz berish yo'li bilan anqliqlas, ularga ma'lum miqdorda mukofot ajratildi. Bu tanloving ahamiyati shunda edidi, u ijodkorlarga moddiy-ma'naviy rag'bat bo'lish bilan bir qatorda o'ziga xos sog'gom ijodiy raqobat, musobaqani yuzaga keltiradi. Hamma o'zining ijodi shu tanlovda e'tirof etilishi ni istardi, albatta. Unda katta tajribaga ega bo'lgan ustoz jurnalistlarni ham, fidoyi pedagoglar, hatto endigina qalam tebratishni boshlagan yosh ijodkorlarni ham rag'batlaniridigan nominatsiyalar bor edi. Ba'zan o'yab qolaman, atayin shunday qilingannimik? Chunki faqat "Eng yaxshi maqola" nominatsiyasining o'zi bo'lganida, yosh jurnalistlar tajribali ustozlardan o'zib, bu nominatsiyada g'olib bo'lishi juda-juda mushkul bo'ladi. Shu bois, "Eng yaxshi yangilik", "Eng yaxshi hikoya", "Vogelikka munosib sharh" kabi nominatsiyalar yosh muhibbirlarni rag'batlanirishning ajoyib bir yo'li edi, nazarimda.

"Ma'rifat" tahririyati yosh havaskorlar qo'liga qalam tutqazib, maqola yozish, ijod qilish darsimi hijjalab o'rgatishdan charchamishdigan sanogli gazetalardan bira edi. Buni doimo faxr bilan aytishim mumkin. Ehtimol, ana shunday e'tibor va g'amxo'rlik tufayli o'sha paytdayoq ko'plab yosh ijodkorlar qatori mening qalbimda ham "Ma'rifat"ga nisbatan kuchi mehri kurktulari nish urgанди.

Haqiqatan ham, "Ma'rifat" har bir yosh qalamkashga imkon berardi, o'rgatishdan charchamasdi. Bugun ustozlarining har bir gapini, o'gitini, pand-nasihatini, hatto

tanbehini ham o'zgacha bir sog'inch bilan eslaysman.

Shu o'rinda, chin ma'noda ijodiy mafhor maktabi bo'lgan jonajon tahririyatimizda men bilan yuz bergan bir voqeani ham aytmasam bo'lmaydi.

Muxbirlik "status"iga erishib, qo'lim-ga tushgan har bir maqolaga qalam tek-kizish shart, degan qarashda havolani yurgan paytlarim edi, shekilli, o'shanda. Surxondaryo viloyati bo'yicha muxbirdan Darbanda bunyod etilgan temiro'yil stan-siyasi haqida bir maqola keldi. Sarlavhasi, adashmasam, "Darbandning yangi darvozasi" degan jumla bilan boshlangan va yana qandaydir tagsarlavhasi ham bor edi. Men o'zimcha bu sarlavhani o'zgartirdim. Keyin uni o'sha vaqtida bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishlayotgan Ikrom Iskandarga olib bordim. U kishi maqolani ko'rib chiqdi-da, materialning "originall'i"ni ham olib kelishimni aytidi. Olib bordim. O'shanda Ikrom aka "O'zi bir yaxshi sarlavha ekan-ku, nimaga buni o'chirib siyqasi chiqqan sarlavhani qo'ydingiz?" dedi. Ustimidan muzded suv quyilgandek bo'ldi. Avvalgi sarlavhani tikladim. Endi o'yab qarasam, haqiqatan ham, mening sarlavhani gazetalardan chiqqaverib siyqasi chiqib ketgan so'zlardan iborat qandaydir "dejurniy" sarlavha bo'lgan ekan, aslida.

Ustozlardan yaxshigina tanbeh eshitib, o'zimiz o'nglab olishga, jiddiyroq izlanishga bu ijod qilishga intilgan o'sha damlarimizni sog'imaslik, qo'msamaslik mumkimi?!

Jonajon "Ma'rifat"im haqida yana qancha gaplarim bor-a. Hammasing yozi-nning iloji bormikan. Halim Saidov, Ikrom Iskandar, Abdusamat Rahimov, Bahodir Jovliyev, Husan Nishonov, Faxridin Karimov, Akmal Islomov, Burxon Rizo singari ustozlarning biz uchun singgan mehnatalarini birgina maqolaga sig'dirishning imkonlari bormi?! Shunchalik ko'p shirin xotiralari borki, yozilmay qolganlari meni kechirsin, deyman o'zimga o'zim.

Hoziri ham "Ma'rifat"da bir ga yashlagan do'starlarim, aka-ukalar, qadrdonlar, ustozlarim bilan uchrashib turaman. Suhbat asnosida bir fikr qayta-qayta, yakidil takroranaveradi: "Ma'rifat" baribir boshqacha edi-al" Aynan nimasi bilan boshqacha edi, aynan qaysi jihatlar bilan qalbimidan burchalik chuquq joy egallagan, buni hech birimiz to'liq izohlab berolmaymiz. Balki, yuqorida aytilib o'tilgan tuy'ular sabablidir. Balki, o'zimiz ham anglab yetmaydigan sir-sinoatlar bordir. Ehtimol, bu sir "Ma'rifat" haqida yozilmish boshqa xotiralarda ochilar. Lekin nima bo'lganda ham qalbimizning eng chuquq pu-chmoqlaridan mustahkam o'ren egallagan "Ma'rifat"ga bo'lgan cheksiz muhabbat, mehr, sog'inch biz bilan abadiy qoladi. Men bunga amimman.

Baxtiyor YOQUBOV



Shunchaki gazeta emasdi...

Universitet talabasi bo'lgan vaqtimizda amaliyot o'tash uchun birorta gazetaga borishimiz kerakligini aytishgan. Bir-ikki nashrlarga maqola ko'tarib borib, xodimlarning sovuqqon muomalasi sabab bu ishni tashlab qo'yanman. Ammo qandaydir bo'lib, "Ma'rifat"ga maqolamni olib borish fikri tug'ilgan. Bu juda nufuzli gazeta bo'lgani uchun, tahririyatiga kirishga ham sal yuragim betlamayroq borganman. Lekin mas'ul kotibning ochiq chehrasi, bo'limdagilarning yaxshi qarshi olishi jurnalistlar ham oddiy odam ekan-ku, degan fikr uyg'otgan.

Keyinchalik, 2009-yilda bu dargohning "Ma'naviyat" bo'limda muhibbir sifatida ishlay boshladim. Bo'lim muhibbiri Baxtiyor Yoqubov edi. Bu mening ilk ish

joyim bo'lgani uchun taassurot-larimni oddiy so'z bilan ifodalay olmayman. Do'stona muhit, kat-talarining kichiklarga beradigan nasihatlarini, u yoki bu mavzu us-

Bosh muhibbir, ham ustozimiz Halim Saidov xodimlarining har biri bilan rahbar emas, do'st, hammaslik sifatida muon-mala qilardi. Har birimizning olibayli sharoitimiz, ruhiy hotatimiz bilan hisoblashar edi, hattoki. Boshqalar ham xuddi shunday. Ish, ijod o'z yo'liga, "Ma'rifat" biz uchun xuddi ya-qinlar davrasini, hamma ichida shodlig-u qayg'usini baham ko'radigan joy edi.

Bosh muhibbir o'rinbosari Husan Nishonov kutilmaganda

miyasida "yarq" etgan topilma, mulohaza bilan xonamizga kirib kelishi, kam gapirsra ham, nishonga urib gapirishi bilan yodimda qolgan. Umuman, bu jamaoda ishlagan har bir insonning o'ziga xos odatlar, yozsa yozgulik tibiati bor edi.

Jurnalistik amaliyotni o'rganishim, soha bilan yaqinidan tanishishimga sababchi bo'lgan bu gazetada o'tgan yillarim, o'rganganlarim uchun minnatdorlik hissi bilan yashayman. "Ma'rifat" qanchadan-qancha kadrlarini yetishtirgan maktab va katta hayotiy tajriba sifatida xotirada qoladi.

Visola QARSHIBOYEVA



Men "Ma'rifat"da 2001–2005-yillari ishlaganman. "Ma'rifat" — ilk ishxonam, jurnalistikadagi ilk ustozim, tanti va halim insonlar yig'ilgan katta dargoh.

2001-yili O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetiga hujjat topshirganimda abituriyentlar orasida ijodiy imtihonda "Ma'rifat" gazetasining bos muharriri Halim Saidov ham ishtirok etarkan degan gap tarqaldi.

Ichimga bir qo'rquv tushdi. "Ishqilib bu muharrir mendan imtihon olmasin-da. Katta bir gazetaning muharriri, yetakchi jurnalislardan — kibri ham osmon bo'lsa kerak, ikkita savol bilan

yiqitib qo'ysa nima qilaman", degan o'ylar o'tdi. Shukurki, mendan imtihonni Halim Saidov olmadi.



"Ma'rifat"ning yuragi

Maktabda "Ma'rifat"ni maroq bilan o'qirdim. Hatto gazeta maxsus muxbir Norali Ochilov maktabimizga kelib, bizga motivatsiya bergen, alaloqibat o'quv dargohimiz haqida "Ma'rifat"da 1 sahifalik maqola va suratlar chop etilgandi. 2000-yili "Kitobxon" tanloving respublika bosqichida "Ma'rifat"dan atlas ko'yulak kiygan Sharifa Madrahimova degan muxbir kelgan va biz bilan suhbatlashib gazetaga chiqargandi. Biz o'quvchilar uchun respublikaning eng nomdor gazetalaridan birida chiqish katta sharaf edi.

2001-yili xalqaro jurnalistika fakultetiga eng yuqori ball bilan qabul qilindim. O'qishning ikkinchi kuniyoq Halim Saidovning "Yangiliklar jurnalistikasi" darsini qo'yishibdi. Ichimga yana g'ulg'ula tushdi. Tavakkal deb darsga kirdim. Domla darsni umuman bo'shqacha uslubda boshladи, birdaniga talabalar bilan chiqishib ketdi. Qo'rquvlarim tarqadi. Halim Saidov o'zimizga o'xshagan, juda xushchaqqa odam ekan. Unda zarracha kibr ko'rinnadi. O'sha darsda domla kelgusi safar har bir guruh devoriy gazeta chiqarsin, deb tayinladi.

Darsdan bir olam tassurot bilan chiqdim. Guruhimiz bilan kelishib, birinchis son muharrirligini men oldim-da, material tayyorlashga kirishib ketdik. Devoriy gazetani to'liq o'zim bezadim. Maqolalarni ham o'zim ko'chirib yozdim. Rasmli materiallar ham ketdi. Krossvord ham tuzdim. Hatto, fikr bildirish uchun konvert yopishtirib, ichiga qog'ozlar solib qo'ydim.

Bir haftadan so'ng domlaning keleshiga gazetani fakultet foyesiga osib qo'yidik. Tan olish kerak, boshqa guruhlaridan bizniki yaxshiroq chiqdi. Har bir maqolani maroq bilan o'qishdi. Konvert ichida fikrlar bitilgan yozuvlar ko'payib ketdi. Tabiiyki, Halim Saidov ham xursand bo'ldi, maqtadi. Darsdan so'ng meni chaqirdi-da, "bugun ishxonamga o'ting" dedi.

Umridda birinchi marta o'sha mashhur "gazetachilar korpusi" — Matbuotchilar ko'chasi, 32-uyga bordim. Bino kirish qismida turarkanman, kaz-o-kazo jurnalislardan, shoir va publisistlarni ko'rdim. Gazeta nomlari yozilgan ro'yxatdan "Ma'rifat"ni qidirib, so'ng iroq qildim. Meni muxbirlardan biri 4-qavatga olib chiqdi.

Halim Saidov yuzida tabassum bilan kutib oldi va bosh muharrir o'rbinbosari Abdusamat Rahimov xonasiga olib kirdi-da, he yo'q, be yo'q bir qog'oz va

ruchka berib, "yozing" dedi. "Nimani yozaman?", dedim hayajonlanib. "Ariza yozing, ishga kirishga". Men butkul shok holatida edim. Umrimda hali biron joyda rasmjan islamaganman, ariza yozmanaganman. Domlaga "men yozishni bilmayman", dedim. Keyin Halim Saidov aytilib yozdirdi: "Meni "Ma'rifat" gazetasiga 0,25 stavka muxbirlik lavozimiga ishga olishingizni so'rayman".

Ariza yozib bo'lingach, domla meniga qarab: "Kompyuterda ishslashni bilasiz-a" dedi. Hayajondanmi, oniy bir baxtni yo'qotib qo'ymaslik qo'rquvidanni, ha, deb yubordim. Vaholanki, maktabda sovet zamondan qolgan "Pravets 8A" kompyuterlarda ishslashan, yangi Windows degan tizimni ko'rmagan edim. Domla gazetadagi bo'limlar bilan tanishtdi-da, bir stol va kompyuterni ko'ratisib, "bu sizning joyingiz, ishni boshlang" dedi.

Kompyuter qarshisida o'tirkantanman, o'zimda emasdim. Bir lahzada o'zim orzu qilgan maskanni ko'rish tugul, uning a'zosiga ham aylangandim. Kechagina hali o'zini ko'rmasdan salobatidan hayqqan inson o'zi ishga taklif qilib turibdi.

Bu Windows degani juda g'alati ekan. Sichqoncha esa umuman bo'lmag'ur: tagida soqqasi aylanib, ekranda yurarkan. Uni boshqarishni o'rganishim juda qiyin bo'ldi. Qarasam, "Kitobxon"da bizdan intervyu olgan Sharifa opa o'sha xonada ekan. Opadan suiddi avval bilgandek, "mana buni qanday qilardi?" deb so'rab bilib olardim. Boshida har xil joylariga kirib ketib, kompyuterni buzib qo'ydim shekilli, deb o'yladim. So'ng biladiganlardan so'rab, o'rganib oldim. Birovlar kompyuterda ishlayotsa, kuzatib turardim – bu jarayonda o'zim ham o'rganib olardim. Kompyuterning imkoniyatlari keng ekan. Asta-sekin boshqa dasturlarni ham o'rganib gazetaning murakkab dizaynnini olib darajasiga yetdim. Bularning barchasi Halim Saidovning qo'llovi va uning yangilikdan qo'rmasligi, doimo yangi texnologiyalar orqali gazeta sifatini yaxhilashga intilishi samarasi edi.

Halim aka "Ma'rifat"dagli xodimlarining eng yaxshi sharoitlarda ishslashini doim qo'llab-quvvatlarid. Boshqa tahririyatlar otam zamondan qolgan texnikani ishlatalayotgan paytda "Ma'rifat"ga so'nggi rusumdag'i kompyuter va ofis texnika-si sotib olinardi. Barcha xonalardagi jihozlar yangilangan, konditsionerlar bilan to'dirilgandi. Boshqa tahririyatdagarlar doim bizga havas qilardi.

Halim Saidov yuzida tabassum bilan kutib oldi va bosh muharrir o'rbinbosari Abdusamat Rahimov xonasiga olib kirdi-da, he yo'q, be yo'q bir qog'oz va

Halim Saidovni "seleksioner" deyishardi. Mendan keyin kursdoshlardan yana 5-6 nafarini ishga oldi. Odatda "Ma'rifat" tramplin vazifasini bajarib, kadrlarni yaxshi tarbiyalardi-da, so'ng boshqa nashr va sohalarga transfer qilaridi.

Bizga rahmatli Mahmud Sa'diy domlani tanishtirgan va tahririyatda uning tahrir san'ati darslarini tashkil etgan ham Halim Saidov edi. Gazetadagi musahhihlar, ayniqsa sahifalovchilar Mahmud domla navbatchi muharrir bo'lgan kundan cho'chib turishardi. Domla sahifani qizil ruchkada tekshirar va tahrirlayverib, lolazor qilib tashlardi.

"Ma'rifat"da xodimlar texnik yoki ijodiy deb ajratilmadsi. Texnik xodimlarga ham xabar tayyorlash, surat ostiga lavha yozish kabi ijodiy ishlarni bajarish taklif qilin va o'rgatilardi. Shu bois gazetadagi texnik xodimlar ham yaxshina ijodkor bo'lib yetishdi.

Jamoada ajoyib do'stona muhit shakllangan edi. Hamma bir-biriga sizlab murojaat qilar, yoshimiz ancha kichik bo'lsa ham kattalar ismimizga aka qo'shib gapirardilar. Halim Sayyid domla esa, talabalarni ham "ustoz" deb chaqirardi. 0,25 stavkada ishlasamda, universitet stipendiyasidan ko'proq oylik olar, chiqargan materiallarninga ham yaxshigina qalam haqi berishardi.

Halim Sayyid domla yoshlarni doimo qo'llab-quvvatlar, motivatsiya berar, erinmasdan o'rgatardi. Men o'zim universitetda budjet hisobidan o'qigan bo'lsam-da, "Ma'rifat" 10 dan ortiq talabalarining kontraktini to'lab berishini billardim. Katta bayramlar arafasida domla tahririyatda talabalarni yig'ar, uyya borib, ota-onaning holidan xabar olishga undar, kerak bo'lsa, moddiy yordam ham berardi.

Biz – talabalar "Ma'rifat"ning viloyat muxbirlari kelishini intiqlik bilan kurdik. Chunki ular kelganda Yunus-boddagi anhor bo'yidagi choyxonada osh berilardi. Domla hamma talabalarni olvolardi. Jurnalislarning ajib hangomalarini tinglardi.

2001-yili "Ma'rifat"ning 70 yilligi katta tantanalar bilan o'tdi. Yoshlar xizmatda bo'ldik. Aksar katta jurnalislarni taqdirlandi. Tantanalar o'tib bo'lganidan so'nggi rusumdag'i kompyuter va ofis texnikalari sotib olinardi. Barcha xonalardagi jihozlar yangilangan, konditsionerlar bilan to'dirilgandi. Boshqa tahririyatdagarlar doim bizga havas qilardi.

2003-yili tahririyatda stol tennis xonasi ochildi. Ungacha "Ma'rifat"-da shaxmat, futbol turnirlari muntazam

o'tkazildi. Maktabda oz-moz stol tenisisi o'yaganim uchun dastlabki paytlarda favoritlar qatorida yurdim. Bir kuni tushlikdan so'ng tennisxonaga kirmsam, bi xodimimiz hammani rosa yutayti. Navbatdagi raqib sifatida men kirdim. Uni yutganimdan so'ng, keyingi xodim o'yinga tushdi. Ketma-ket favoritlarni o'yindan chiqarib yubordim. Bu paytda xonada 20 chog'li odam yig'ilgan, hamma qiziqish bilan o'yinni tomosha qilardi. Musobaqaga Halim Saidov ham qo'shildi. Oxirgi daqiqalarda g'oliblikni qo'ldan boy berdim. Tushlikdan keyin qo'shimcha ishlarni bajarib olaman deb tennisxonaga kirmay qo'ydim. Bu orada boshqa hamkasblar kuchayib ketib, men luerlar qatoriga tushib qoldim.

Ziyouz.com portalining dastlabki materiallari ham ishdan so'ng "Ma'rifat"-da tayyoranardi. Gazetada chiqayotgan muhim yangiliklarni saytga ham kiritib turardim. Keyin yaxshi maqolalarni ham onlayn olamga ko'chira boshladim. Ishxonada internet chekllovli bo'lgani uchun kechqurun materiallarni disketa ga ko'chirib, internet-kafega kirib joylardim. Bir kuni Halim Saidov chaqirib, "yaxshi ishlar qilyapsiz, mayli materiallarni tahririyatda tayyorlayvering, lekin ettiyot bo'ling", dedi.

"Ma'rifat"dagli faoliyatimning eng esda qolarli lazhalaridan biri "Uzlit" degani senzura tashkilotining bekor qilinishi edi. Ungacha har bir gazeta chop etadigan har qanday sahifani 3-qavatdagi "Uzlit"chilarga olib kelar, ular tanishib, mafkuraviy va boshqa sabablarga ko'ra, ba'zi maqolalarga ruxsat bermasdi. Odatta, oddiy bir sabablar bilan ham maqolalarni olib tashlardi. Ular muhr bosmasa, bosmaxona gazetani chop etmasdi. 2003-yili bahor kunlarining birida "Uzlit" yopildi. Lekin bu haqda gazetalarga ma'lum qilinmagani uchun 3-qavatdagi xonanining oldida o'sha kuni bir dunyo sahifalar to'plandi. Holatni "Ma'rifat" fotomuxbiri Burhon Rizoqulov suratga ham olgandi.

2007-yili magistrlik dissertatsiyamga Halim Saidov rahbarlik qildi. Domlaning o'z ishiga munosabati, har qanday xizmatga jiddiy qarashiga havas qillardim. Halim aka uch-to'rt marta ishdan keyin qolib, men bilan dissertatsiyani qayta ishlar, oxirgi versiyasini ham hijjalab o'qib bergandi.

Halim Sayyid chin ma'noda "Ma'rifat"ning yuragi edi. Buni bir mengina emas, o'sha yillarda tahririyatda ishlagan har bir xodim baralla ayta oladi.

"Ma'rifat" aslo zavol ko'rmasin!

Bu yil bir qancha faol ommaviy axborot vositalari qatori, "Ma'rifat" gazetasining ahil jamoasi ham "Oltin qalam" milliy mukofoti uchun o'tkazilgan xalqaro tanlovda g'oliblikni qo'nga kiritdi. Bu voqe'a kechagina shu mo'tabar tahririyatning bir vakili bo'lgan, bugun esa boshqa ishxonada o'z rizqini terayotgan oddiy ijodkor sifatida kaminani ham quvontirdi. Aslida, biz yutuqlarga, davomiy zafarlarga ancha o'rganib ham qolgandik. "Oltin qalam" mukofoti "Ma'rifat" gazetasiga birinchi marta kelishi emas. Mashhur aktyorlar aytishadi-ku: "Oskar" hayajoni menga begona emas, deb. Xuddi shunday Gazeta xodimlari har qanday tanlov g'olib va sovrindorlari safida doim bo'lgan!

Albatta, ijtimoiy tarmoqlar orqali, ayrim hamkasblarimni qo'ng'iroq yordamida qutladim. Ular bu muvaffaqiyatda qaysidir ma'noda mening ham xizmatim borligini aytishganda ikki karra sevindim. To'g'ri, bu e'tirofda ozgina mubolog'a bor. Ammo sobiq jamoamning g'alabasi uchun chin dildan shodlana olganimning o'zi ham bir ulushdir, dedim-da...

"Ma'rifat" gazetasi talabalik yillarimizda yoshlar orasida, yosh jurnalistlar xayolida eng "trend"da turadigan nashr edi. Hatto O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistik fakulteti talabalari uchun bu tahririyat tom ma'noda laboratoriya, keling, o'zbekcha gapiray — ustaxona edi. O'qishdan keyingi umrini, hayotini-yu sarguzashtlari aksar talabalar, xususan, mendan bir yosh kattalar ham, tengdosh va kichiklar ham shu yerda, aniqrog'i, Matbuotchilar ko'chasidagi 32-uyning 4-qavatida joylashgan oppoq koridori bor, fayzli tahririyatda o'tkazardi.

Buning uchun mehribon ustozlarimiz, tahririyatning yangi davri tamal toshini qo'yan ijdoklar sharoit yaratib bergandi. Gazetaning o'sha paytdagi bosh muharriri Halim Saidov xalqaro jurnalistik fakulteti talabalari uchun dekandan ham ko'proq muhim shaxs edi. Hammamiz uning e'tiboriga tushishga va shu orqali "Ma'rifat"dek gazeta tahririyatinining a'zosi bo'lib qolishga umid qilardik... Chunki Halim aka dars o'tish bahonasida bolalarim ichidan "bo'ladijan"larini tezda aniqlab, chorak (0,25) stavkaga bo'lsa-da ishga olardi! Bu "Falonchiye Falonchi "Ma'rifat"ga ishga kiribdi!" degan shov-shuv bo'lardi.

Ishga kirish-ku, mayli, hammaga ham emas, gazetada maqolangiz chiq-sayyoq ikki ko'ylik semirib, fakultetdagi uncha-muncha domlalarni pisand qilmay yurardingiz-d. Esimda, albatta — Shavkat Rahmon haqidagi maqolam bilan bog'liq voqealar...

Maqolani ko'tarib tahririyatga borganima, o'sha vaqtida (2005-y.) bosh muharrir o'rnibosari Abdusamat Rahimov materialimni Husan Karvonli o'qib ko'rib, "tashxis" qo'yishini aytgan. Hozirgi bosh muharrir, men humrat bilan "Husan og'a" deydigan qadrondan akamning huzuriga shul sabab kiranman. "Shavkat Rahmon haqida yozgandim..." deganman iymanibgina. Qo'ng'iz mo'ylovini "fishka" qilib, ko'zoynak tagidan qaraganiga va muxlislik bobida tanlovimiz bir ekaniga xursand bo'lganini tezda anglaganman.

Kerakli tushuntirishlarni bergach, maqolamni qayta ishlashti taklif etdi.

Odatda, juda ko'plab boshlovchilar bunday "raddiya" dan so'ng maqolasini shart yirtib, katta eshikdan chiqaverishdag'i chiqindi chelakka tashlab ketadi va qaytib kelmaydi. Yo'q, kamina bunday qilmadim. Balki, maqolamni yanada boyitib, ichiga Husan akaning meni kutib olishi va gaplarini ham epigraf sifatida kiritib yubordim. Maqolam chiqishini astoydil istagandim-da!

Tahririyatga bir haftalarda qaytib keldim va Husan og'aga yangilangan maqolamni tutqazdim. Tabiiyki, aka ilk satrlarimni o'qirkan, kulib-kulib qo'yidi: "Ukkoor, bu meniyam qo'shvori-di-ku", dedi hamkaslariga miriqib kulib. Muhimi, bu safar maqolamni olib qoldi. Bilasizmi, shuning o'zi men uchun bayram edi — "Maqolamni olib qoldi! Ma'qul keldi!"

Davomini ham aytishim kerak. Maqolaning taqdiri nima bo'ldi? Afsuski, bu maqola oradan ancha vaqt o'tib, dumiyulangan tovuqdek nogiron holda chop etildi. Sababini surishtirdim va bildimki, maqolam bir sahifa qilib joylashtirilgan paytda, yuqorida zug'umli ko'rsatma ostida bir kattakonning materiali kelib qolgan va "Shavkat Rahmon" darhol "snsos"ga tushgan. U paytlar shunday bo'lardi-da. Istalgan paytda tepadan nimadir kelib qolardi... Lekin shu holiga ham fakultetda ancha olqish olganman...

"Ma'rifat" gazetasi talabalik yillarimizda yoshlar orasida, yosh jurnalistlar xayolida eng "trend"da turadigan nashr edi. Hatto O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistik fakulteti talabalari uchun bu tahririyat tom ma'noda laboratoriya, keling, o'zbekcha gapiray — ustaxona edi. O'qishdan keyingi umrini, hayotini-yu sarguzashtlarini aksar talabalar, xususan, mendan bir yosh kattalar ham, tengdosh va kichiklar ham shu yerda, aniqrog'i, Matbuotchilar ko'chasidagi 32-uyning 4-qavatida joylashgan oppoq koridori bor, fayzli tahririyatda o'tkazardi.

"Ma'rifat" gazetasida do'stlarim, men yaxshi ko'rgan odamlar ishlardi. Juda halol, kamtarin va pokiza insonlar mehnat qilardi. Ularga juda havasim kelardi. Lekin u yerga ishga kirishim oson kechmagan. Aksinchala, talabalar orasida eng ko'p mashaqqat va qiyinchilik bilan "Ma'rifat"ga ishga kirgan xodim men bo'lsam kerak. Chunki buning uchun to'rt yil chinakamiga kurashganman! O'nlab maqolalarim chiqishi va "Fasl tanlovlarida" da g'olib chiqishim, hatto mini futbol bo'yicha o'tkazilgan turnirlarda "Ma'rifat" gazetasini jamoasi tarkibida to'p tebib, yutuqlariga hissa qo'shishim ham ish-

ga barvaqt qabul qilinishimga yetarli bo'lmagan.

O'sha kezlerda dunyodagi eng tushkun talabaga aylangman. "Sog'lom avlod" gazetasida ishlardim. To'g'ri, ajoyib jamaoa bor edi bu yerda ham. Ustozlarim — Jabbor Razzoqov, Dilfuza Shomaliyova, Muhabbat Hamidova, qadrondan akam Faxriddin Hayitov va boshqalar bilan bir safda ishlab, katta tajriba orttirdim. Eng qizig'i, ular ham "Ma'rifat"ni o'zgacha hurmat bilan tilga olar, qo'ldan tushirmay o'qirdi.

Nihoyat, 2008-yilning yozida "Ma'rifat" meni qabul qildi. Biroq o'shanda ham muxbirlik maqomim shunchaki rasmiylashtirib qo'yilmadi. Balki, bosh muharrir xonasida, rahbarlardan iborat "navbatdan tashqari" kengash tuzilib, qattiq "savol-javob"dan keyin "Ma'rifat" muxbirni bo'lganman. "Agar unday qilsang, bunday qilsang..." degan ogohlantirishlar aytilgan!

Keyin bilsam, mening ishga ha deganda olinavermasligim sabablariidan biri og'iroq xarakterim ekan. Xarakterim rahbarimizga ma'qul bo'lmagan, biroq talpinaverganimidan keyin rahmi kelgan chog'i... "Mayli, ishlab ko'rsin", degan.

Yo'q, ular kutmaganda, ishga kirishib ketdim. Bir zumda o'z uyimdek bo'lib qoldi. Axir aytdim-ku, har kuni, albatta, tahririyatga kelardim. Buning ustiga, do'stim Saidjon Maxsumov shu yerda ishlardi. Men "Ma'rifat"ning rasmiy buyrug'i yo'q ishchisi edim.

Bir narsani tan olishim kerak — "Ma'rifat" gazetasi og'ir xarakterimni davoladi, meni qayta tarbiyaladi. Bir kataroq maqolam chiqsa, ustoz jurnalistlar Hulkar To'yanova, Qurbanboy Matqurbonov, yana matn teruvchi mehribonlarim Dilobar opa-yu Qutbi onalar maqtab qo'yardi. Hulkar opa "Zohidjon gazetasida eng ko'p gonorol adilagan talaba", deb sermashulligimni e'tirof etar, Dilobar opa maqolalarim ko'p ham bo'yalmasligidan xursand bo'lar, Qutbi ona esa "muhorabaga kirishdi", "elga qo'shdi" kabi "g'alati" jumlalarini aytib, mazzaqilardi.

Bugun ulardan juda kam qismini qog'ozga tushiryapman.

Ayni paytda matbuot og'ir xastalikka chalingan. Ya'ni,unga munosabat o'zgaryapti. G'afur G'ulomning bir jumilasiga o'xshatma qilsam "Odamlar "Gazeta o'qimaymiz!" deyayotganish"! Ana shunday murakkab davrni "Ma'rifat" gazetasi ham boshdan kechiriyapti. Bir vaqt当地 yetmishdan oshiq xodimi bor naq arining uyasi bo'lgan nashrda bugun o'n besh chog'li odam qolgani, albatta, quvonlar emas. Mana shular haqida o'ylaganda, odamning yuragi kuyadi, jondan aziz kasbingga iching achiydi.

Inson bor ekan, kasalliklar tugamaydi, jinoyatlar barham topmaydi, siyosat ham, madaniyat ham turfa shaklda yashayveradi. Ammo matbuotning ertsasi nima bo'ladi? Matbuot bilan taqdirini bog'lagan millionlab jurnalisticlarning, iste'dodlarning qismati nima kechadi, degan savol, afsuski, bugun ayrimlarning ijtimoiy tarmoqlarda ayyuhannos soladigan, "ochko" ishlaydigan zo'r mavzusi bo'lib qoldi, xolos. Amalda esa hech narsa o'zgarmayapti. Xuddi "Orol dengizini qanday qutqaramiz?" degan savollar jozibasi kabi "Gazeta-jurnallarni qanday as-raymiz?" so'rog'i o'izlami to'ldirishga xizmat qilmoqda.

"Ma'rifat" gazetasi har qanday sharoitda ham yashashi kerak bo'lgan, chop etilishi va barqaror rivojlanishi shart bo'lgan nashr. Chunki muhtaram Prezidentimiz keyingi paytlarda eng katta e'tiborini ma'naviyatga, ma'rifatga qaratmoqda. Kitobga qaratmoqda! Bolalarimizni telefon yoki kompyuterga mahliyo bo'lishiga-emas, kitoblardan ilm hikmatini terishga da'vat etmoqda! Butun millat shuuri, ong-u tafakkuri, qalbi tozarishini, fikrati yangilanishini mana shu ikki mezon — ma'naviyat va ma'rifat asosida deb bilmoxqda. Tarbiya va intizom negizida deb ishonmoqda! Buning uchun respublikamizning turli hududlarida tashkil etilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat budjetidan ming yoki million emas, milliardlab mablag' ajratilmoqda. Taassuki, ayrim mutasadidilar davr talabi, zamona zayli bo'lib turgan bu oddiy haqiqatlarni anglamayapti, anglasalar ham kuzatishdan boshqasiga yaramayapti...

Muxtasar tilagim shuki, "Ma'rifat" gazetasi aslo zavol topmasin. Toki zaminda O'zbekiston degan muhtasham davlat bor ekan, u ham qatorda tursin, yashasin. Men ishlaganim uchun emas! U shunday sharafga haqiqatda munosib bo'lgani uchun! 90 yillik tarixi va ming bir imtihonlardan omon o'ta olayotgani uchun! Kamina yaqin yillarda matbuot hali beri insoniyatga kerakligini teran eslatishiga, albatta, u o'zingin rad etib bo'limas ahamiyatini, o'mini bildirishiga aminman. Bugungi talash pallalardan omon o'tib, "katta sahna"ga juda katta kuch, g'ayrat, shioqat bilan qaytadi! O'shanda ham "Ma'rifat" eng old o'rnlarda bo'lishiga shubham yo'q!

Zohidjon OLOV,
"Adabiyot ziysi" gazetasi bosh muharriri o'rnibosari,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Sizga o'xshashni istayman o'zimdan ko'proq



Toshkent. Bu go'zal shaharni tilga olganimda eng birinchi ustozim ko'z oldimga keladi. Mahmud Sa'diy. Universitetni tugatganimdan so'ng har safar poytaxtga kelganimda u kishi bilan ko'rishmay ketmasdim. Bir "dakki" eshitib, o'zimga kelardim. Ustoz ta'biri bilan aytganda, bizni "kimdir turib turishi kerak-da"... U kishi odatdagidek ko'zoynagi ustidan qarab, so'roqqa tuta boshlardi. Erinmasdan nima ishlar bilan badligim, qanday kitoblar o'qiyotganim, nimalar yozganim, xullas hammasini bir boshidan so'rardi. Ayniqsa, kelgusi rejalarim haqida...

Endi esa Toshkent huvillab qolgandek. Har bir joyning qadr-qimmatini shu yerda yashaydigan qaysidir qadronding timsolida anglarkansan. Qayadir talpinsang, demak o'sha joyda yuragingga yaqin insonlar bo'larkan. To'g'ri, Toshkentda ko'plab do'star orttirdim, hamkaslarim, ta'lim bergan ustozlarim bor. Ammo endi Mahmud Sa'diydek bir jonsarak yo'q. Men haqimda mendan ham ko'proq qayg'uradigan inson edi u. Chinakam suyanchiq edi. Unga ishonib bemalol yurgan ekanman. Hali ko'p narsa o'rganaman, bilmaganimni so'rayman deb. Ustozning vafoti hushimni joyiga keltirib qo'ydi. Suhbatlarda aytgan barcha maslahatlari, qiliishim kerak bo'lgan ishlar birma-bir xayolimdan o'ta boshladi...

Ustoz mening qoraqalpoq va o'zbekning zo'r jurnalisti (ehtimol, yozuvchisi ham) bo'lishimni orzu qilardi. "Qadr" kitobiga shunday deb dastxat yozib bergandi. O'zim esa hech jiddiy o'ylab ko'rмагan ekanman. Kim bo'lishim haqida. To'g'ri, tanlagan kasbimni yaxshi ko'raman. Journalist sifatida qahramonlarim bilan chin dildan yayrab suhbat quraman, jamiyatdagi muammolarni yoritish, odamlar mushkulini yengil qilish, ular quvonchiga sherik bo'lishdan ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Ammo shu yetarlimidan?

"O'zinga o'xshamay qolibsan" derdi domla ba'zi maqolalarimini o'qiganida. "Nasibali (ustoz ismimni ko'proq shunday atardi) bunday yozmagan bo'lardi". Salgina "qitmır" shu gaplardan so'ng ilhomlamib, dadilanib ketasan. Demak, o'zimga xos yozishim kerak. "Yangilik bir vaqtlar unutilgan eskilikdir", degan edi Asqad Muxtor. Tanlagan mavzuningning yangi qirralarini topish – talant. Vatan, ota-onasi, do'sti, muhabbat, go'zallik ... Eh-he, qo'liqa qalam olgan ijodkor borki, ana shunday

oddii, ammo tabarruk mavzularda nimadir qoralaydi. Lekin ularning qay biri xalq e'tirofiga sazovor bo'ladi? To'rtinchı kurs paytimda Vatan haqida turkum maqolalar yozmoqchi bo'ldim. Ustozdan maslahat so'ragandim, "Vatanni qanday ko'rsang, qanday sevsang shunday yoz!" dedi. Qanday ko'raman? Vatan – bu men tug'ilgan uy, men yashagan ovul, turuman va respublika. "O'zligimni anglatgan dargoh", "Dono va sodda odamlar", "Nomningi eshitib, bormasam bo'limas" kabi maqolalarim shu tariqa dunyoga keldi. Ular birin-ketin "Ma'rifat" gazetasida chop etildi. Unda tug'ilgan uyim, o'z oilamizga xos ichki qonun-qoidalar, ota-onamning biz farzandlariga bergen tarbiyasi, sodda qishloq odamlari, ularning bir-biriga munosabati, mehr-oqibati, uchinchi maqolada esa o'zim tug'ilgan Kegeyli (Kegayli, ya'ni "kelish kerak" ma'nosida) tumani tarixi haqida atroficha yozganman. Xo'sh, endi Qoraqalpog'iston haqida nima yozish mumkin? Birdan tuz ko'z oldimga keldi. Dengiz allaqachon qirg'og'ini tashlab ketgan bo'lsa ham, shu yerda barcha qiyinchiliklarga ko'nib yashayotan xalq irodasi, so'nmas umid, tug'ilgan yurt muhabbat – hamma-hammasini tuzga bog'liq holda tasavvur qildim. Ustozga fikrim ma'qul bo'ldi va "Tuzingini totib ulg'aydim, Vatan" nomli maqola dunyoga keldi. Unda tug'ilgan chaqalojni namakobda cho'militrishdan tortib, "tuz totish", "tuzini yeb, tuzlig'iqa tupurma" kabi iboralar talqini, tuz bilan bog'liq urf-odatlar, bari-bari yoritildi. Mavzuga bog'liq ajoyib hayotiy misollar topib, hikmatlar bilan maqolamizni boyitdi. 2013-yili esa "Eng ulug'", eng aziz" tanlovida bosma matbuot yo'linalishida aynan shu Vatan haqida yozilgan turkum maqolalarim uchun birinchi o'rinni qo'liga

kiridim. Bularning hammasi ustozimning yo'l-yo'rig'i, bebafo maslahatlarining natijasi edi...

Aslida "Ma'rifat" gazetasida chop etilgan ko'plab ajoyib maqolalar ortida ustozning mashaqqatini mehnati turardi. Sekin qaynab pishgan sho'rvaning ta'mi o'zgacha bo'lganidek, uzoq vaqt davomida o'ylangan va yozilgan (ustoz "pishish kerak" iborasini qo'llardi) maqola ham o'quvchiga xush yoqari so'zsiz. Asosiyasi, yaxshi tahrir qilingan material bir tekis o'qiladi. Unda adashib yurgan so'z yoki tinish belgisini uchratmaysiz. Bu bilganga yuksak san'at. Til ustida ana shunday jiddiy va mas'uliyatni his etgan holda ishlash – chini fidoyilik. Afsuski, bugun eng ko'p uchratayotganimiz – xato. Hamma ishining tez bitishini istaydi. Son bor-u, sifat yo'qolmoqda. Bu o'zimning ham boshimdan o'tgan va o'tayotgan holat.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetida tahsil oldim. Yaxshi jurnalist bo'lish uchun katta kursdagilarning tavsiyasiga ko'ra ustozga shogird tushishni niyat qildim. Tahririyatga izlab borib, yozgan besh-oltita maqolamni o'qib, fikr aytilish uchun berib ketdim. Oradan bir oy o'tdi, ikki oy, yarim yil... oxiri bo'lmadi. Yana iyamnigina "Ma'rifat" gazetasining adabiyot bo'limi eshigini taqillatdim. "Ha, mo'lla Nasibali, kel" dedi ustoz. U shogirdlarini "mo'lla" deyishini eshitganligim bois, o'zimni ham ular safida his qilib, ancha yengil tordim. Maqolalarim daraginini so'radim.

– Qoraqalpoq folklorini o'qidimgmi?
— deya qo'qqisidan so'rab qoldi.
– Ha, anchasini o'qiganman.
– Qanchasini?
– Anchasini.
– Nechta?
– Dostonlar, ertak, xalq qo'shiqlarini...,
– dedim ming'illab.
– Yana hammasini bir boshidan o'qishing kerak.

– ...
– Folklor – millatning bebafo boyligi, eng yetuk tilda – xalq tilida yozilgan mehnatlar sanaladi. Uning kamol topishi, shu tayyor holiga kelishi uchun yillar, asrlar sarflangan. Masalan, bitta dostonni olaylik. Nimaga u ko'p variantli? Chunki har bir baxshi, jirov dostonni o'ziga xos uslubda, yangi talqinda ijro etgan. Yoki bitta naqlini oling. Mag'zida qancha ma'no

mujassam. Bobolarimiz naqadar dono bo'lishgan. Ularni bilmaslik, uqmaslik uyat-da...

Shu vaqtga qadar folkloriga eng oddiy adabiyot sifatida qarardim. Aslida ulug'lik oddiylikda bo'lishini bilsam ham, anglab yetmagan ekanman. Folkloridan juda ko'p narsa o'rgandim. Xalqini tanimagan odam xalqqa tanilishi, sevimli va yaqin bo'lishi mumkin emasligini his etdim. Qayta o'qish, to'g'riroq'i, uqish (anglisch) san'atini o'zlashtirdim.

"So'zni his qish kerak", derdi domla. "Bu uchun juda ko'p o'qish zarur. Yozish asli o'qishdan iborat. Shu bois senga vazifa – har hafta bitta asar mutolaa qilgin."

Ustoz oldimda bir haqiqatni kashf qilgandi: oqmay qolgan suv ayniydi, ishlatalmagan temir zanglaydi. Xuddi shu kabi kitob o'qimagan, o'z ustida izlanmagan odam ham ma'nan kambag'alga aylanadi. Uning na aytgan so'zida, na yozgan narasida, na qilgan ishida baraka bo'ladi. Sog'lom fikrash uchun katta bilim zaxirasi kerak. Sog'lom fikrash esa – sog'lom hayot degani...

Ustoz haqida juda ko'p narsa yozish mumkin. Afsuski, biz no'noq shogirdlar oлган har bir suhbatimiz, har bir o'tilgan darsni qog'ozga tushirmagannim. "Qo'lda borning qadri yo'q" deganlaridek, shunday qilish zarurligi xayolimizga kelmagan. Bugun esa faqat o'z xotiralarimiz bilan cheklamoqdamiz. Ko'ngil to'rida qolib ketgan izhorlarimiz ham talaygina:

Ustoz, Siz jurnalistika, adabiyot ola-mida yashadingiz. Hayotingiz davomida oddiy xodim sifatida ishladingiz. Tahrir deb atalmish mayda, ammo juda kerakli, ko'plarning qo'lidan kelmaydigan, "chidaganga chiqqargan" mehnatga umringizni bag'ishladitingiz. O'zingiz emas o'zgalarni yorug'ga chiqarish maqsadida qancha ko'z nuringizni to'kdizing. Bugun Siz ko'tarilgan pog'on, siz erishgan humratga, ke-chirirasiz-u, kursida o'tirgan kattakonlar ham havas qilsa arzyidi. Buyuklik – od-diylikda. Men ham shu yo'ldan borish niyatidaman. O'qiyapman, ustoz. So'zga Jon beray deb o'qiyapman.

Bir kun ketsam so'zga Jon berib,
Yashash uchun tug'ilgar imkon.

Afsuski, she'rlarimni Sizga ko'rsat-maganman. Usiz ham ba'zan "Ey, nima sho'rimisan?" (nimadirin unutib qo'ysam) derdingiz. Xayolparastligim, ozgina shoirligim rost. Shoira sifatida kim meni kashf etarkan?! Bilmadim. Nesibeli o'zini toparmikan, o'ziga o'xsharmikan!?

Nesibeli MAMBETIRZAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi

"Shogird uchun kuyinish shunchalik bo'lar..."



"Ma'rifat" gazetasiga endi borgan vaqtim. Ustoz Mahmud Sa'diy o'sha paytagi bosh muharrir Halim Sayyid bilan tanishtirdi-da, bu deyarli tayor kadr, qo'rmasdan ishga olaver, dedi. Ishga qabul qilindim.

Ko'p xotiralar ustoz Mahmud Sa'diy bilan bog'liq. Bir kuni bir jurnalist haqida gapira turib shunday dedi. "Bilasizmi, shu jurnalist ivrisiq ayolga o'xshaydi. Yozgan narsasidan ham uning tartibli emasligini sezib olishingiz mumkin". Ustozning faqat o'ziga yarashadigan ajoyib gaplari, kesatiqlari

bo'lardiki, u kishini ko'rganda hamma birdan jiddiy tortib olardoli. "Jo'qiy she'rlar yoziyapsizlarmi?", derdi havaskor shoirlarga, "O'qisang, yaxshi bo'lasan", deb qo'yardi qalamni bo shogirdlariga.

Bir narsa hech esimdan chiqmaydi. O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakultetida bir qiz ijodiy imtihonda ustozdan yaxshi baho oladiyu, lekin testlardan o'tolmay talabalarni safiga qabul qilinmaydi. Ustoz o'sha qizning ism-familiasini eslab qolgan ekan, talabalardan juda uzoq vaqt surishtirdi. Agar odamda zarracha qobiliyat borligini ko'rsa, aslo befarq bo'lmasdi, qo'lidan kelgancha yordam berar, o'zi uchun so'ramasa ham shogirdi uchun iltimos qilish mundi.

"Yaqindagi uzoq odamlar" nomli kitobcham nashridan chiqqanida ustozga olib borib ko'rsatdim. Nazarimda, u kishi xursand bo'lib meni maqtashti kerak edi. Ammo ustoz kitob-

ning bir-ikki sahifasini olib, ichidagi imlo xatolarini ko'rdiyu, darrov kayfiyatli buzildi. O'ldiribsizlarda kitobni, ha, mayli, keyingi gal xatosiz chiqqarsi, o'sha falonchiga aytg'in, xo'pmi, dedi. Xo'p, xo'p, ustoz, dedim. Yana qo'shib qo'ydi: "Besh-olti dona olib kelib bergin, Alisher Navoiy kutubxonasiga berayapman, harma-da, odamlar o'qiyidi". Shogirdi uchun kuyinish shunchalik bo'lar deyman, hozir o'yab.

Ustoz odamlarga bir qarashdayoq, o'zi o'qigan kitobdagi qahramonlar nomidan laqab qo'yishga usta edi. Menimcha, ustoz o'qiganlari ta'sirida yashardi, lekin o'z hayotida baxtil edi. Birovga qulluq qilmadi, tilyoq'lamaqliq qilmadi. "Ma'rifat" ga qanchadan qancha yaxshi talabalarni jalb qildi, tahrir san'atini erinmay o'rgatdi. "Ma'rifat" maktabadas ustozlaribyalagan jurnalistlar hanuz ustozning takrorlanmas gaplarini eslaydi.

Zuhra RO'ZIYEVA

Maktab va universitetni qayta o’qidim



Qashqadaryo viloyatining Yakkabog’ tumanida bir hovuchgina odam yashaydigan chekka bir ovluda tug’ilganman. Otam – o’qituvchi, onam – uy bekasi. Bola atrofidagi odamlar orqali dunyon tanishi boshlaydi. Inson — o’zi yashayotgan muhitdir. Tevaragimda so’zi tinglanadigan; yoshlar hayiqib, kattalar qulluq qiladigan; ust-boshiga qarab yuradigan kishilar O’QITUVCHILAR edi. “Men ham o’qituvchi bo’laman!”, derdim.

Ustoz degan tabarruk siymolar o’zlarini ko’z qorachig’idek asrasinlar, tahqirga emas, taqdirda loyiq yashasinar. O’qituvchi – bola uchun oyna, jamiyat ko’zgus! Muallim fanini o’rgatishdan avval va afzal qila oladigan ishi – bola qalbida hech qachon, hech qanday ta’sir tufayli o’chib qolmaydigan nur – yorug’ kelajak yog’dusini yoya olishidir! Buyuk muvaffaqiyatlarla erishgan shaxslarning bizdan biringa farqi, ular vaqtida o’z oldilariga buyuk maqsadlar qo’ya olganlar.

Sanoatda eng sara, xaridorbop mahsulotni bozorga chiqarish uchun tadbirdirkorga yuqori sifatlari, yetarli miqdordagi xomashyo kerak. Pedagoglar, bu borada hammadan ko’ra omadli tadbirdirkorlar – Sizsiz! Sizing qo’lingizga tadbirdiqdagidagi eng sara, eng qimmatbaho, eng sifatlari, eng mukammal xomashyo – inson bolasi tutqazilgan! Yaponiyani qarang, Janubiy Koreyani ko’ring, insondan boshqa hech bir resursi yo’q. Lekin dunyoning taraqqiy etgan davlatlari aylanishgan. Ko’zlarini portab sizga termilub turgan bebafo xazinalaringizdan foydalansaymiz?! Mo’jizalar yaratmaysizmi, shoh asarlaringizni elga taqdim qilmaysizimi?!

Hayotda oldimga qo’yan katta maqsad, g’oya, rejalarim yo’q edi. Mening qalbimda ana shu mash’ala yonmay qolgan yoki o’chirilgan edi. Yaratib qo’yliganim uchun majburan yashar, yaratish uchun yashamas edim. O’lish uchun yashar, o’lmastik uchun yashashim kerakligini bilmas edim...

O’zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistik fakulitetini tamomladim. Talaba ekanman, ko’ngil dumyosida har tong quyosh charaqlaydigan tengdoshlarimga havasim kelardi. Ular tabalab chog’idan oq sohamizga oid turli tashkilotlarda ish o’rganib, ishni boshlab yuborgan edi.

Do’stlar tavsiyasi bilan ish izlab, O’zbekiston milliy axborot agentligiga bordim. Subhatda “Sen tengi yigitlar uzoq manzillarni ko’zlab, tuyaga minib sahroda ancha-muncha yo’llarni bosib qo’yishdi. Sen hamon yo’lli boshida turibsan”, deyishdi. Qabul qilinmadim. Keyin boshqa bir gazeta tahririyatiga qatnab yurdim. U yerda ham xush ko’rilmadim.

Shoir Behzod Fazliddin. U bizdan bir necha kurs yuqorida o’qidi. Kitoblari chop etilgan, she’rlarini sevib o’qirdim. O’zi “Ma’rifat” gazetasida ishlar edi. Shoir akamizning tavsiyasi bilan “Ma’rifat”ning eshigini qoqdidi.

Ilk bor shunga guvoh bo’ldimki, “Ma’rifat” tayyor kadrlarni qabul qiladigan emas, ko’pgina xodimlarini o’zi sabr bilan tarbiyalab yesitshtiradigan dargoh ekan. Odamlar bilan hashr-nashr bo’lavermaydigan, odamovi, maqola yozish, tahrir, axborot izlash, ma’lumot to’plash, mavzu tanlab, uni yorishit... borasida deyarli hech qanday tajribasi yo’q kaminiishi qabul qilishi.

Gazetaning sobiq bosh muharriri, universitetda bigza dars bergan ustozimiz Halim Saidov tahririyatda ajoyib, bir-birini qo’llaydigan ahil jamaoa shakllantirib ketgani ekan. Mening bir fe’lim bor, o’zimni erkin his qila olmagan, begonasiragan joyimda ko’p qola olmayman. Ko’nglimga ergashib indamaygina u yerdan chiqib ketaman. “Ma’rifat”ga esa 3-4 oy ish o’rganish uchun maosh olmasdan qatnab yurdim. Keyin gazetaga Abdusamad Rahi-

mov bosh muharrir etib tayinlandi. Bo’lim muharriri Hulkar To’ymanova, bosh muharrir o’rinbosari Bahodir Jovliyev kabi ustozlarimiz tavsiyasi bilan meni hech qilmaydigan Abdusamad aka “Umumiy o’rtva maktabgacha ta’lim yangiliklari” bo’limiga muxbir qilib ishga oldi. Shu joyda foydadan xoli bo’limas deya, bir masalani eslab o’tmoqchiman. Hech qaysi jihatdan jurnalist sifatida o’zimni ko’rsata olmaganim holda menga nisbatan yaxshi munosabata bo’lishlarining sababi nima edi? Avvalo, ustozlarimizning oliyanoqligidan.

So’ngra, fiziki ojizimcha, salom va tabassumning sebrida edi. Garchi og’zimdan xushomad, iltifot va mulozamat so’zlarini chiqavermasa-da, salom va tabassumda saxiy edim. Misol uchun, keyinchalik rahbarlarimiz kamina xodimi pishirish uchun Navoiy viloyatida bo’lib o’tgan “Umid nirollari” festivaliga Xalq ta’limi vazirligi tomonidan xizmat safariga yuborishdi. Bir oyga yaqin Navoiyda qoldik. Haqiqatan, bu safar men uchun yaxshigina maktab bo’ldi. Festival oldidan Xalq ta’limi vazirining birinchi o’rinbosari vazirlig xodimlarini bilan yi’lish o’tkazdi. Kimlagrafdir tanbel berdi, kimlarmidir taqdirlardi. So’ng kamina do’stingizni ko’rsatib hammaga o’rnak qildi: “Mana bu bolani mehmonxonada oshpazlar o’z farzandidek yaxshi ko’rib qolishib!” Ishda o’zimni ko’rsatolma-gandirman. Mehmonxona oshpazlarining mehnari qozonadigan hech qanday qahramonlik ham qilganim yo’q. Shunchaki, ularni ko’rganda salom berar, tabassum qilar va tashakkur aytar edim, xolos...

Xullas, gazetada ish boshladim. Qalamari borligi ko’rindi. Ammo ma’lumatim, g’ayratim va eng zaruri – o’zimga ishonchim yo’q edi. Biror maktab o’qituvchisidan intervju olish uchun eshigi idda ichkariga kirolmasdan qirg’ marta qatnar edim. Mukammaliyotchi shaxslarda bu hol ko’p kuzatiladi. Ular xato qilishdan qo’rqishadi. Har tomonlama tayyor bo’fishlarini kutadi va ish boshlay olmay taraddudga tushadi. Moslashishlari qiyin kechadi. Oqibatda, qo’rqanlarini boshlariga tushadi – ko’p dakkishi-dashnom eshitadir va e’tibordan chetda qolishadi. Aslida mohib rahbarlar uchun bunday xodimlar ochilmagan xazindan. Chunki bizning ko’zimizda aby bo’lib ko’ringan jihat ularning fazilati, aslida. Mukammaliyotchi kishilar kamchiksiz, mukammal ish qilishning payida bo’ladi. Ularga rag’bat, ishchonch, ishning mohiyatini biroz hijjalab tushuntirish va so’ng sabre bilan natija kutish kerak, xolos.

Abdusamad Rahimov bo’lim muharririmizda shunday derkan: “G’olib o’zidan chiqarib, tashabbus bilan ish qilmaydi. Unga buyursang, bajaradi”. Darhaqiqat, bosh muharririmiz qachon meni xonasiga chaqirib, topshiriq bergan bo’lsa, o’sha material e’tirof etilar, hatto bir gal tahririyatning “fasl tanlovi”da “eng yaxshi reportaj” nominatsiyasi bo’yicha g’olib ham bo’lgan edi.

“Ma’rifat” gazetasida ish boshlaganim – hayotimdag eng to’g’ri qarorlardan biri, qadari ilohiyining tuhfasi bo’lgan desem, mubulog’asi yo’qdir. Baxtiyor Yoqubov, Bahodir Jovliyev, Husan Karvonli, Mahmud Sa’idi, Farrux Jabborov kabi ustozlarning qo’llovi bilan sekin-asta qalamim va qaddimim tuta boshladim. Xususan, Mahmud Sa’idi domla bizga biroz umid bilan qaragan edi. Olloho ustoz-

zimizni o’zining rahmatiga olsin! Ilmiga to’ymagan ustozimiz bir gal, men katta, sen kichik demasdan, Qur’oni karimidan suralar yodlash niyatni borligini aytib, kam-inadan maslahat so’ragandi. Odatda, rasmiy maqolalar yozib yurganimiz va yozganlarimizning “suvi ko’p, mag’zi kam” bo’lganidan avvaliga domlanan e’tiboriga yaqin ham yo’lay olmaganim. Lekin ustozga ilk badiiy qoralamalarimni olib borganimdayoq iliq, hatto issiq qarshiladi. O’zbek tilini yaxshi bilmasligimni ham biringchi bor ustozdan eshitdim. Mahmud Sa’idi domlaning so’zboshisi ostida, “Va’da” rukni bilan “Eh, sodda odamlar!” suralvhali hajiyiv ruhdagi hikoyalarimiz “Ma’rifat” gazetasida e’lon qilindi. Fasl tanlovida “Eng yaxshi badiiy asar” deya tahririyat tomonidan e’tirof ham etildi. Gazetanid ketganimdan so’ng, bir ora bekor qolgan paytalarimda ham, ustoz mening “Ma’rifat”ga qaytishim uchun jon kuydiridi. Afsus, biz uchun aziz va qadri kishilarimizning hayotligida qadriga yetmaymiz! Ustoz bilan dyordorlashish qiyomatga goldi endi...

Nafaqat ish va ijodiy jarayonda, balki shaxsiy hayotimizda ham “Ma’rifat”ning ma’rifatli kishilaridan mehr va marhamat ko’rdik. Hayot uchun eng kerakli saboqlarni oldik. Gazetanid Buxoro viloyati murbixi – Sora Tosheva. Qalami tebranib charchamas Oybuv Ochilova vositalarida tanishib, Toshkentda u kishining uyida ijara yashar edim. Oilmal, farzandim bilan shu uya ko’chib borgan kunim hamon esimda.

Uyda inson o’zidan ham qizg’adigan qirmizi katta gilam to’shalgan edi. Mebelar ham yangi. Shunday buyumlarini deb oilalar buzilib ketayotgan zamonda... Men xijolat bo’idim: “Yosh bolamiz bor. Shu gilamni yig’ishitirib qo’ysak”, — dedim. “O’g’lim, hech bir buyum insondan aziz emas!”, — dedi onam. Ha, hech qachon onamdan boshqa kishiga “Ona” demagandim. Biz tog’liklarning tili yunushoq so’zlariga ko’p ham aylanavermaydi. Lekin Sora onamming samimiyat to’la har gal “o’g’lim” deyishi, qaynoq mehri oldida tog’imning toshlari ham erib ketardi. Ko’p yaxshiliklari ko’rdim, ko’p...

Umuman, jamoadagi har bir kasbdoshimizning mehri, muhabbati, e’tibori oldida o’zimni qarzdar hisoblayman! Men bu yerda jamoani yaxshi ko’rib ishishga shu qadar ko’nikibmanki, xodimlari bir-biriga oshkor va zimdan xusumat qilishi odotidagi holga aylangan ishxonalar haqidagi eshitiganimda men unaqa joyda nafas ola olmasligimni his qilar edi...

Men nima uchun o’z sohamda oldiniga intilmas, hech kim bilan raqobatlashmas edim? Buning bir qancha sababi bor edi. Shulardan biri imon-e’tigodim bilan bog’liq bo’lgan. O’sha paytlari namoz o’qiydigan kishilarga nisbatan islomofobiya ta’sirida yotqarash, yovqarash onglangscha chiqur o’rnashgan edi. “Sen Misrda o’qib kelgan ekansan, qanday qilib seni ishga olishdi?”, deya so’raganlar ham bo’lgan edi. O’zim ham “Dindormisan, ko’tarilomaysan. Bir chekkada jimgina yurganing yaxshi...” – myamga bu yanglish fikri singdirib olibdam. Bu qarash, aslida, dinimiz e’tiqodiga ham zid qarashdir. Shuning uchun kishi hech bir sohadha chala ilm bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Chala ilm odamni mutaassiblashtiradi. “Ma’rifat” gazetasida ishlarman, ohista-ohista miyamdagidagi bu stereotip parchalana boshladim. E’tiqodida mahkam turgan hamkasblari mishlari puxfa qilishar, axloq-odobi bilan jamoaning, rahbarlarning mehri qozonib, yuqori mavqelarga ko’tarilishganin ko’rdim. Ichimda umid uchquqlari uyg’ona bordi. Agar biz diniga bizdan ko’ra mahkamroq amal qilmogchi bo’lgan kishilarni jerkaversak, jamiyatga aralashuviga xalal bersak, insonlik huquqlarini poymol qilaversak, ular ham o’zlarini yashab turgan jamiyatga nisbatan yotsi-

rashni boshlaydilar. Ana shunday alamda latik qancha-qancha yurdoshlarimizning tashqi ta’sirlarga berilib ketishlariga sabab bo’ldi.

“Kelingningizda juda ham yopiq edingiz, hozir ancha ochilib qoldingiz!”, dedi ustozlarimizdan biri. Ha, indamas odam endi hamma bilan hazil-huzul qilib, yozilib-yayrab gaplashishni boshlagan edi...

G’ayratsizligimning yana bir omili – o’zim ishonmagan, ko’nglim to’lmagan gaplarni yozardim. O’zim yozganimni o’zim o’qigim kelmasdi. Vijdomim qiyarlardi. Biz qalammni tutgan qo’l emas, kimlariningdir qo’lidagi qalam edik. Dunyodagi eng keraksiz ishni qilayotgandek his qilardim o’zimni. Bir sahifa maqolani qoralash uchun qanchalar stressga tushardim, Xudoga ayon. Uni tahrir qiladigan ustozlarimizning ham fig’oni falakka chiqardi.

Usta uy quradi, odamlar huzur qilib yashaydilar u yuda. Cho’pon boqgan qo’ylarning go’شتi naqadar totli, novvoyning issiqqina kulchalarida dunyoning hamma lazzati bor! “Lekin men qilayotgan ishdan kimga nima foyda?”, derdim o’zinga o’zim. Bir kuni hamkasblarimga “Yozayotgan har bir so’zimdan nafratlanaman!”, dedim. Kulib aytdim, kulib eshti hamma. Faqat ichimiz yig’lar edi...

Muharrir akalardan bira yoniga chaqirdi. “Nima qilasiz o’zingizni qiyab? Shu sahifani vijdonigizni azoblamaydigan so’zlar bilan ham to’ldirishingiz mumkin-kul”, dedi.

Yolg’onlarsiz, foydali narsalar bilan sahifanni to’ldirishga qaror qildim. Oyoq tirashdan voz kechdim. Bo’ynimni qisib turgan ip biroz bo’shadi, o’pkamga biroz havo kirdi. Miyanga qon yugurdi go’yo... Gazetanid odatiy tilida, odatiy talablariga ko’ra o’zim ham tushummaydigan so’zlarini emas, o’z so’zlarimni yozishga urindim.

O’zim mayzuvlarini tanladim. Xillas, biroz ter to’kishga to’g’ri keldi. Ter bilan terner farqi bo’larkan. O’zgalar irodasi bilan, majburan to’kilgan ter sillangni quritadi. O’z ixtiyorning bilan peshonadan quyilgan shudringlar esa senga hayot beradi...

Kasbimga mehimr uyg’ona boshladim. Cho’pon o’z yaxshil boqishi, novvoyon nomini yaxshilab yopishi, har kim o’z ishini astoydil bajarishi uchun mening kasbi juda ham kerak ekan!

O’zgara boshladim. Eng avval atrofimda hamkasblarim ko’nglimni ko’tara boshladim. Hatto sahifalovchi opaning “Unday yaxshi narsa yozibisz!”, degani hamon quloqlarim ostida jaranglaydi! Tuzilgan yillik rejalari ichida bosh muharririga faqatgina menin mavzularim yoqqanini eshitganda ham ichimdan bir mazza qilib olinman. Ora-sira gazeta o’qvuchilaridan maqolalarimiga munosabatlar keldi. Xizmat safaridan qaytgan kasbdoshim borgan joyida faqimi so’raganlar bo’lganini aytishi. Kutilmaganda meni boshqa tahririyatdan ishga chaqirdilar...

To’g’ri, aytarlik katta yutuqlarga erishganim yo’q. Lekin sahifamagi yozuv o’zgara boshlagani sabab o’zim o’zgariyotgandim. Ishimga munosabatlar o’zgardi.

Hozir Janubiy Koreyadaman. Muso-firchilida eng ko’p sog’ingan, qadrini kech anglagan kunlارimidan biri – osha kunlar, o’sha odamlar bo’ldi! “Ma’rifat”da maktabni va universitetni qayta o’qigandek edim. Safarimiz chog’ida ham o’sha dargohda olingen ko’nikmalar hayotning har odimida asqotib keladi. Ish va tashvishlar orasida fursat topib qalam tebratib turishimda yana “Ma’rifat” ahlining dashnom va daldalari bor.

Sevimli gazetamizning 90 yillik bayrami munosabati bilan, avvalo, ustozlarimizni, barcha “Ma’rifat” ahlini sog’inch to’la qalbim ila tabriklayman!

G’olib BAHROM
Janubiy Koreya

Imtihon kuni



Adashmasam, ming to'qqiz yuz to'qson beshinchı yilning yozi edi. "Marifat" gazetasida Oliy va o'rta ta'lim bo'limi mudiri vazifasida ishlayman. Jamoamiz katta, ahil va inoq. Gazetaning har bir soni rang-barang sermaz-mun, qiziqarli chiqishi uchun qattiq mehnat qilinadi. Bosh muharririmiz, ustozi Sa'dulla Hakim (Olloh rahmatiga oлган bo'sini) kichik xabarchaga ham katta talablar qo'yadi. Eng avvalo, jumialarning pishiqligi, ifodaning ravon va tiniq bo'lighiga alohida e'tibor qaratadi. Albatta, biz qiziqxon, o'zilarmon yoshlarga u kishining e'tirozlarini kortsatmalarini chalik yoqmaydi.

O'zi mittigina xabar bo'lsa, shuning nimasiga buncha kuyib-pishib ish-lashimiz kerak, deb o'ylaymiz ensamiz qotib. Norizo kayfiyatimizni ustoz tez payqaydi, lekin o'zini bilmaganga soladi. Beparvolik qilmanglar, har bir satr ortida odam bor, urib turgan yurak bor, mazmunidagi iborani bot-bot takrorlar edi.

O'sha yoz, o'itiz birinchi iyul sanasida, bosh muharrir huzuriga chorlashdi. Borsam, tahririyat suratkashi Rashid Galiyev ham o'sha yerdagi o'tirgan ekan.

— Oliy ta'lim bo'limi, mudiri, ertaga qanday kun, bilasizmi? — deya kulisimrab menga yuzlandi. Sa'dulla aka.

Men ham a'lochi o'quvchiday javob berdim:

— Birinchi avgust — test sinovlari kuni.
— Buning qanchalar mas'uliyatlari ekanini ham bilarsiz.

Ha, bilardim. O'sha yillari mammakatda test sinovlari endi joriy etilgan, uning qay tarzda o'tishini nafaqat hukumat, rahbarlar, balki butun xalq e'tibor bilan kuzatib turardi.

— Sahar soat oltida, Galiyev ikkinchiz pedinstitut yonida bo'linglar, — deya topshiriq berishdi Sa'dulla aka, — keyin universitetga borasizlar, test jarayonidan jonli, sermazmun reportaj tayyorlaysizlar. Men o'zim ham o'sha atrofda bo'lamani. Masala tushunarlimi?

— Ha, tushundik, — jo'rovoz bilan javob berdi.

Albatta, topshiriq jiddiy edi. Qabulxonadan chiqar-chiqmas xayolan rejalar tuza boshildim. O'sha kezlar Alisher Nazar (hozir taniqli jurnalist, noshir, damiga birov yaqinlasha olmaydi) endigina "Ma'rifat"ga ishga kirgan, dovdirabgina ortimidan ergashib yurardi. Kechki payt biznikiga keldik. Chunki bola-chaqa qishloqqa, qay bir qarindoshning to'ya ketgan edi. Kartoshka qovurishni bilaman, idish-tovoq yuvishni ham eplayman, degani uchun Alisherni aldab-suldab uyg'a boshlab kelgandim. Ammo yolchitmadim. Uning hamma yoqni to'zg'itib, xom-xatala pishirgan ovqatini yeyishga to'g'ri keldi. Bir payt qarasak, vaqt allamahal. Uyquga cho'zildik. Biroq uygu qayerda deysiz? Qonxo'r pushshalar bilan olishib chiqishga to'g'ri keldi. Qachon ko'zim ilashganini bilmayman. Yuzimga tushgan oftob taftidan uyg'omib ketdim. Soat millari "8" raqami ustida titrab-qaqshab turardi. Jon-holatda Alisherni uyg'otdim. U ham qaltsiz vaziyat vujudga kel-

ganini anglatdi.

— Endi nima qilasiz?
— Sen zip lab fishxonaga boraverqin, — dedim apil-tapil yuzimga suv purkar ekanman, so'rashsa, mening sahar payti topshiriq bo'yicha chiqib ketganimmi ayti.

Chiroqchilik shogird oshxona to-monga umidvor termulib turidi.

Nonushta qilgan odamdan yaxshi jurnalist chiqmaydi, o'rgan, ustudent, — dedim.

Hartugul, o'sha kezlar Alisher Nazar gapga qulqoq soladigan, odobi bola edi. Yana bir qistaganimidan so'ng apil-tapil ishxonaga jo'nadi. Saratomning avji kelgan kunlar edi. Chor-atrof ertalabdan oq'itustidagi tovoday qizigan. Qilt etgan epkin yo'q. Badanlardan ter quyiladi.

Ko'pchilik yaxshi biladi: "Ma'rifat" tahririyati to'rtinchini qavatdag'i uzun yo'lakning oxirida joylashgan. Men yurak hovuchlagancha yo'lakning boshida paydo bo'lganimda, "10" raqami xuddi qo'rqqanday yoki uyaqganday soat millari ortiga yashrinib olgandi. Beixtiyor fizzalarim bo'shashib ketdi. Chunki "Ma'rifat" yonidagi manzara yaxshilikdan darak bermasdi. O'sha paytdagi bosh muharrirning birinchi o'rinosari Mahkam aka Rahmonov (iloyo, go'rnurga to'lsin!) asabiy tarzda tamaki tutatardi, o'sha kezlar gazetaning, adashmasam, "texred"i Mahkam aka Qo'chqorov jazava bilan charx urar, qo'lini paxsa qilib allanelan haqida gapijadi. Hay, bu ikkisidan bir amallab qutularman. Ammo meni ulardan sal narida yo'lakka burgutdek ko'z tashlab turgan yirik namoyanda tashvishlantirardi. Bilaman, u mayda-chuya aytishuvlar bilan pachakilashib o'tirmaydi, baqvuvat qo'llarini bishermab oladi, xolos. Sermalagan mushmi, shapaloqmi, farqi yo'q, sezishgaga ham ulgurmang qolasan. Xullas, quyuq, qop-qora sochlarni ahyon-ahyon silab qo'yayotgan ana shu yigit menda ko'proq xavotir uyg'otardi. U o'sha paytlar bosh muharrir o'rinosarligiga tay-inlangan, yosh, iqtidorli jurnalist Halim Sayyid edi!

Yaxshiyamki, yo'lak anchagina uzun, nimqorong'i, salqin. "Ma'rifat" yonida betoqat turgan rahbarlarga yaqinlash-gunimcha, o'zimni xiyla qo'lg'a oldim. Qo'rquvlarni haydadim. Ancha beridan qiroq bilan salom berdim:

— Assalom-u alayko'o'o'm! Hor-mang, ustozlar!

Ijodiy jarayonning unga mutloq aloqasi bo'limasa-da, "texred" Qo'chqorov

qarshimga otilib chiqdi.

— Qatlarda yuribsan, ahmoq! Sani ves redaksiya izlavotti!

— Qatta bo'lard, kechagi topshiriq bo'yicha yuribman, — dedim o'zimni xotirjam ko'rsatib, — mana, birato la-reportajni ham tayyorlab kelayapman.

Men yag'iri chiqqan papkamdan bir dasta, qo'lyozma chiqarib namoyishkorona boshim uzra silkitudim. Bu Alisher Nazar tamshana-tamshana tark etgan nonushtani yeb, achchiqqina choydan ho'plab-ho'plab yozgan reportajim edi.

Halim Sayyid qo'lyozmaga ko'zi tushgandayoq indamay xonasiga kirib ketdi. Qo'yilman, bir qarashdayoq, nimadir qilib kelganimni sezdi. Pachakilashishga, qo'l sermashha hojat yo'q. Ammo Mahkam Rahmonov xuddi ishonmaganday qo'limdan qog'ozlarni yilib oldi.

— Qani, ko'rib chiqay-chi, keyin gaplashamiz.

Biroz engil tortib xonamizga kirdim. Nelarni yozib o'tirgan Alisher Nazar menga jovidrak ko'z tashladi.

Endi o'ldingiz. Redaktorning o'zi-yam sizni rosa izlabdi. Ko'rinsa, arizasini op qolninglar, degan emish. Halim akayam ikki marta pedinstitutga, universitetga borib keldi.

Albatta, chiroqchilik shogird mening ish tindirib kelganimdan bexabar edi. Menga achinib, gapirardi. Ihsiz, ko'cha da tentib qolib ketishimi istamasdi.

— Qo'yaver, boshga tushganni ko'z ko'radi, — deb qo'ydim donishmandlar ga xos, xotirjam tarzda joyimga o'tirar ekanman.

Bir payt xonamizga Halim Sayyid otlib kirdi. Yonida suratkash Rashid Galiyev ham bor.

— Taqsir, — dedi, qo'lidagi varaqlar ga ishara qilib, — reportaj zo'r chiqib-di-ku.

— Mana, men ham xuddi shu manzaralarni suratga opkeldim, — hovliqqa-nicha gapga aralashdi Galiyev. Mana, daraxt soyasida yonboshlab yotgan, ko'ksi to'la orden-medal taqqan otaxon haqida ham yozibsiz, men ham kakraz o'sha qariyan tushirganman. Lekin sizni ko'rmadim. Qatta edingiz?

Men sizni ko'rdim. Apparatni timsiz chiqillatib yurgandingiz, — deb qo'ydim vaziyat o'nglanganidan quvonib.

Ammo Halim Sayyid menga shubha bilan tikildi.

— To'g'risini aiting, qay go'rda edingiz?

— To'g'risiga, ana, yozganlarim guvoh emasmi, — dedim ochiq yolg'on gapirishdan qochib, — biror kamchiligi bo'lsa, aiting.

Baribir bosh muharrir o'rinosari ishonqiramadi.

— Qandaydir nayrang qo'lladingiz, — deb qo'ydi xonadan chiqqa turib, — hali qo'lg'a tushasiz, o'shanda ta'zirin-gizni beraman. Hozircha sizning foydangiza, bir-u no'li.

Alisher Nazar butun jarayonni hangumang kuzatib turardi.

Uydan chiqmay, shuncha narsani yozib keldingiz-a, — dedi u boshqalar xonadan chiqib ketgach.

Sirli ko'z qisdim.

— O'rgan, ustudent.

— Bormay, ko'rmay qanday yozdin-giz, — qiziqsindi shogird, — bizga ham o'ranging.

— Nega endi "bormay", "ko'rmay"? Xay, bu gal uxlab qolqandirman, lekin o'tgan yili borganman, undan oldingi yili ham qabul imtihonlarini kuzatganman. Axir bu gal biror narsa o'zgarib golmaydi-ku. O'sha serhayajon abituriyentlar, jonsarak ota-onalar, duogo'y bobolar. Yo ular bu yil kelmagan deb o'ylaysanmi?

Alisher Nazar allanelarni tushungan-day iljayib qo'yi.

Xullas, Rashid Galiyev ikkimiz tayyorlagan, oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari jarayoni haqida hikoya qiluvchi reportajimiz xiyla shov-shuv bo'ldi. Ertalabki "letuchka"da bosh muharrir ham maqtadi. Ana shunday tezkor, sermahsul ishslash kerak, dedi. Butun yig'in davomida shishinib o'tirdim. Halim Sayyid ahyon-ahyon yer ostidan musht o'qtalib qo'yadi. Bu mening fidokliginga hali-hanuz ishonmagandan darak. Lekin hozircha mening foydamga, ikkiyu no'!

— Luqmon, siz qoling, — deb qoldi bosh muharrir yig'indan so'ng — Ikki og'iz gap bor.

Kodimlar menga ajabsinib qarab qo'yishdi.

Xona salqin, konditsioner zo'r berib ishlab turardi. Bosh muharrir ishora qilgan joyga o'tirdim.

— Xullas, reportaj yaxshi chiqqan, — dedi Sa'dulla aka stol ustidagi gazetaning yangi sonini yana bir karra varaqlab, — lekin nimadir yetishmaydi. Bilasizmi, nima yetishmaydi?

— Kamchiliklari bo'lsa kerak, — deb g'udrandim zo'rg'a.

— Taft yetishmaydi, reportajda mahorat bor, lekin harorat yo'q. Yozganlarigiz xuddi Rashid Gali uzoqdan olgan suratlarga o'xshaydi. Mehr, ixlos mutloq sezilmaydi. Nega shunday, bilasizmi?

Yo'q, — deb zo'rg'a ming'irladim. Sa'dulla aka kuldii.

Chunki siz voqeja joyiga bormagan-siz. Tasavvurga, fantaziyaga suyanib yozgansiz.

Men ustozning topqirligi, sezgirligiga, ayniqsa, maqolani aniq baholay bishidan lol qoldim.

— Ha, shunday... — ming'irladim arang.

— Bilaman, yaxshi ijodkorsiz, to'qib-bichib tashlayverasiz va o'shang ahammani ishontira olasiz. Lekin sizga maslahatim, aytilgan joyga boring, nafaqat vaziyatni ko'rish, balki his qila bilish kerak, o'sha yerdagi abituriyent bo'lib yashashning lozim. Ana shundayning yozganingizda harorat bo'ladi, yuqumli bo'ladi. Tushunarlimi?

— Ha... ustoz.

Xullas, bu galgi imtihondan sizga "to'rt" baho. Kelgusi gal a'loga topshirishingizga ishonaman. Davay, endi ishga!

Bosh muharrir huzuridan dovdirabgina chiqdim. Lekin ich-u tashim yop-yorug' edi. Chunki hayotim, ijodim uchun unutilmas saboq olgan edim.

Xasanov Aziz Qosimovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "O'pka yirning kasalliklari miniinvaziv davolash usuli" mavzusidagi (tibbiyat fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-iyul kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Xamzayev Akbar Abdalimovichning 05.05.02 — Elektrotexnika. Elektr energiya stansiyalari, tizimlari. Elektrotexnik majmualar va uskunalar (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Issiqlik elektr stansiyasining xususiy ethiyoj aggregatlarini asinxron yuritmasini ishga tushirilishini mikroprotsessor yordamida boshqarish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 246-46-00, 227-10-32; e-mail: tsu_info@tdtu.uz

Kurbanov Baxram Shukriyevichning 10.00.06 — Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Rus va o'zbek tillarida leksik paradigmalar derivatsion jarayonlar aksi sifatida" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a”uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Atayeva Nilufar Saliyevnaning 10.00.06 — Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida bank-moliya terminlarining leksik-semantik xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-“a”uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Muqimov Ma'ruf Olimovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasini va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Professional ta'lime mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanan texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.

Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Ibragimov Ulug'bek Muradilloyevichning 13.00.06 — Elektron ta'lim nazariyasini va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) ixtisosligi bo'yicha "Olyi ta'lim muassasalarida modellasshtirish dasturlaridan foydalanib umum-kasbiy fanlari axborot-ta'minotini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.

Tel/faks: (71) 246-92-17, 71-246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Ergashev Qandiyor Xorun o'g'lining 02.00.06 — Yuqori molekulyar birkimlari (kimyo fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Bombyx mori xitorzanining gidroksipatit bilan kompozitlarining sintezi va xossalari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 6-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-“b” uy.

Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

Kamilov Davron Zafarovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Sekulyarlashuv jarayonining ijtimoiy-falsafiy tahlili" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Ibragimov Suxrob Latifovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasini va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini matematik modellashtirish asosida takomillashtirish (Texnologik jaryonlarni va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish ta'lim yo'naliishi misoldi)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.

Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Raximov Ergashali Yuldashevichning 05.05.06 — Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonning gelio-energetik resurslarini baholash uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirish va verifikasiyalash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Farg'on'a politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/27.02.2020.T.106.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 150107, Farg'on'a shahri, Farg'on'a ko'chasi, 86-uy.

Farg'on'a politexnika institutining kichik majlislar zalai.

Tel/faks: (73) 241-12-06, 241-12-01; e-mail: ferpi_info@edu.uz

Hasanova Feruza Mirzabekovnaning 10.00.05 — Osyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Xitoy-bayxua tilining leksik-semantik va grammatic xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.

Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovnaning 10.00.06 — Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Xitoy va o'zbek tillarida lakunalarining voqelanishi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.

Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Sharaxmetova Muxlisa Ansaritdinovnaning 10.00.06 — Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Boburnoma"ning urducha tarjimasida mualif uslubiga xos leksik-semantik xususiyatlarning aks etishi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.

Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Abdullahov Abdurasul Abdulpattayevichning 09.00.02 — Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (Din falsafasi) ixtisosligi bo'yicha "Bag'rikenglik madaniyatining islam dinida namoyon bo'lish xususiyatlari" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021 yil 7- iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Tilarov O'ktamjon G'ulomovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil)" mavzusidagi jan doktori (DSc) dissertasiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021 yil 6- iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.

Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Xudaybergenov Yaxshimurad Gulimbayevichning 11.00.01 — Tabiiy geografiya ixtisosligi bo'yicha "Janubiy Orolbo'yining cho'llashayotgan hududlaridagi geotizimlarning o'zarshini tadqiq qilish" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Gr.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

O'zMUning Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti binosi.

Tel/faks: (71) 246-12-24, 246-53-24, 246-02-24;

e-mail: ik-geografiya@nuu@mail.ru

Alisher Navoysi nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektorati va Kasaba uyushma qo'mitasiga Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri Botir Elovga qizi

BOLTAIEVA OQILAning

vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Bunday "dars"lar hech bir universitetda o'tilmaydi



"Marifat" – men ko'ngil qo'ygan jamoa, tong saharlab oyoqlarim istab yetaklagan manzil, menga universitetdan ham ko'proq dars bergan maktab va har gal qaytib borishni qo'msaya veradigan, o'zining borligini, borlig'i mudom eslatib turadigan yorqin damlarim.

"Ma'rifat" gacha va undan keyin bir qancha joyda ishlagan bo'lismiga qaramay, ko'nda bitta savol bilan yuzlashaman: "Ma'rifat"da ishlaysiz-a?". Bu savol eshitgan quloqqa qandaydir xush yoqadi va uning quvvati bilan har gal yillarni ortga burib, Matbuot uyining to'rtinchini qavatiga – men uchun qadrond o'sha oq marmar uzun yo'lakka qaytaman.

Ishxonadagi qaynoq muhit ko'z oldimda kinotasmadek aylanaveradi. Ustoz Mahmud Sa'diy "Yoshulli, bugunga bir vagon maqola naqd", deb bolalarcha xursand holda kirib keladi. Eng avval, ish stolidagi qalamdonga qadalgan ruchkalari joyida turibdimi – ko'z tashlaydi. Hammasi o'rniada bo'lsa, kecha ko'chirishga topshirib ketgan maqolasi "taqdirdidan xabar olish uchun" operatorlar xonasiga yo'ladi.

Yodimda, bir gal kimdir domla yo'g'ida xonani hoqliqib olib: "Ruchka kerak. Ho'zir qaytarib opkelaman" dedi. Men ham boyagi ruchkalardan birini sug'urib "man" deb berib yubordim. Bir mahal domla kirib keldi. Kun bo'y ni behalovat ishlagdi. Uyoqqa o'tadi, buyoqqa o'tadi xona ichida yurib.

Oxiri "Tinchlikmi, ustoz?" desam. "Yoshulli, shu... nimadir kam xonada. Hech kimga hech nima berib yubormadingmi?" deb qoldi. Ruchka haqida aytdim hamki, o'sha kuni ikkinchi bunday qilmasligim darsini oldim.

Ustoz tahririga kirishganda materialini birinchi martasida qalam yoki ko'k ruchkada, ikkinchisida qizil va uchinchini qaytasida qoraqda tekshirardi. Umuman, gazetada har kimming ana shunday o'z "dastxat" bo'lardi. Materiallar sahifalanib, navbatchining qo'liga kelib tekkan kunlari buni yaqqolroq his qilish mumkin edi. Ko'k rangli tekshirishlar, odatda – navbatchining o'ziniki, yashil yurg'azilgan bo'lsa, so'zsiz – tahrir Husan Karvonliga tegishli, qorada chizg'langan o'rinalr – bosh muharrir qo'lidan o'tgan va hokazo...

Biroq ungacha kechadigan yana bir mashqat bor: o'zingni o'zing tahrir qilish. Endi bu eng murakkabi. Go'yoki hech kimmigiga o'xshamas va betakror yozib qo'ygan ijodingni qaychilashga qo'ling ham, ko'ngling ham bormay turganida, "Ma'rifat" xayollaringni tumandek tarqatib yuborar, matnni suvidan xalos etib, SO'Z bilan jonli munosabat o'natishga chaqirardi.

Rukn tanlash bobida ham "Ma'rifat" o'ziga xos maktab. Soha amaliyotida rukn topishning ikki yo'li bor: biror hikmatli so'z, xalq maqoli, aforizm qo'llash yoki ensiklopediya, turli lug'atlardan foydalananish. Ammo ruknida mana shu ikki jihat bilangina cheklanilmaydi. Muallif mahorati, salohiyati, uzoq yillik tajribasiga ham tayanipladi. Tahririyatda esa bu mezonlarning har uchalovini birvarakayiga ko'rish imkonini bor edi.

"Ma'rifat" yangi rukn tashkil qilar ekan, albatta, o'sha ruknga yuklangan muayyan mississiyo bo'lardi. "XX asr: o'zbek hikoyasi", "Bashariyat yulduzlar", "Iqtibos", "Millat mulki", "Dunyo bizni yangidan tanimoqda", "Biz dunyon tani-moqdamiz", "Qo'ng'iroq chalinguncha", "Aslyiyatdan tarjima", "Va'da", "Boqiy kitob", "Sim-sim", "Kenja botir", "Gu-rung"...

Bu ruknlar ichida negadir doim orziqib kutadiganim "Va'da" edi. Chunki "Ma'rifat" uncha-munchaga "va'da bermas", va'da bersa bajargan.

Ushbu rukn ostida ilk maqola 2009-yil 4-iyulda chop etilgan. Rukn ochilar ekan, shunday deyiladi: "Har qanday sersuv daryolar ham unga yangi-yangi irmoqlar, jilg'alar kelib qo'shilish turmasa, sayozlashib, bora-bora qurib qoladi. Adabiyot daryosi ham shunday. Unga yangi-yangi, yosh iste'dodlar uzuksiz ravishda qo'shilib

turishi kerak. Shundagina adabiyot daryosi to'lib-toshib oqadi – so'z san'ati rivojlanadi, gullab-yashnaydi. Iste'dodlarning ro'yogba chiqishi uchun esa qulay sharoit – jo'shqin adabiy muhit kerak! Biz ham respublikamizda yaxshi ijodiy muhit yaratilishiga baholi qudrat hissa qo'shish, iqtidori yoshlarning diqqatiga sazovor asarlari yuzaga chiqarishga imkoniyat yaratish maqsadida yangi – "Va'da" ruknimizni ochidik".

Ruknning ilk sonida Zohidjon Xolovning "Tongotar" hikoyasi (yosh ijodkor bugun Yozuvchilar uyushmasi a'zosi), keyinchalik Farog'at Jabborovaning "Dovuchcha xola" si, Bobur Nabining "Bir umrlik rag'bat", "Hikmatli fiqrular" i chop etilgan.

Shu ma'noda "Va'da" – bu ishonch, "Va'da" – bu "Ma'rifat"ning qat'iy so'zi, ruhi, lafzi. Menga qolsa, nashr sahifalaridan o'rin olgan har bir ijod namunasini nashrining – "va'da"lari. Ular adabiyot daryosiga kelib qo'shilayotgan irmoqlar, jilg'alar bo'lib bir butunlashsa, to'qindek mayvilanadi, to'lib-toshib oqadi.

Va bunday "dars"lar hech bir universitetda o'tilmaydi.

Akmal JUMAMURODOV,
Adliya vazirligi qoshidagi
"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi bosh mutaxassisasi,
"Ma'rifat" muxbiri (2015–2018 yillarda)

"Ma'rifat" qoliplarni parchaladi

"Ma'rifat" ... O'ylab qarasam, pedagoglarning ziyo-lilarning hamrohi, qadrondiga aylangan bu gazeta bilan hamkorligim bundan uch yilcha oldin, barsha sohalar singari ta'limda ham shiddatli islo-hotlar boshlangan, gazeta esa bu islohotlarning oldi saflarida turib, turli-tuman qarashlar, fikrlar, munozaralar uchun maydon oshib berayotgan paytda boshlangan ekan. Test tizimi muammolari va ularning yechimi haqida, olyi tallim muassasalarimiz va xalqaro reytinglar tog'risida, darsliklar haqida, metodik yondashuvlar haqida, o'zbek lotin yozuviga takif qilinayotgan o'zgarishlar tog'risida fikr-mulohazalarimiz gazeta orqali kasbdoshlarga va keng auditoriyaga yetkazdim.

Kimdir fikrlarimni yoqladi, kimdir – yo'q. Gap aslida unda emas. Gap shundaki, "Ma'rifat" turli-tuman, bir-biriga qarama-qarshi, keskin fikrlar bildiriladigan platforma bo'la oldi. Matbuot faqat "ura-ura" gaplarni yoritishi shart emasligini, babsa va munozaralar, ziddiyatlar maydoni bo'lisi mumkin-

ligini, tanqidlar, o'z muassislari bo'lgan vazirliklarga yoqmaydigan gaplarni ham olib chiqish mumkinligini amalda isbotladi. Axir, matbuotning asl vazifa-si ham shu – jamiyat yuziga oyna tutish, bahsda haqiqatning tug'ilishiha zamin yaratish emasmi?

"O'qituvchi nimani o'laydi"

rukni ostida e'lon qilinayotgan fikrlarga e'tibor bering — qisqa, chertib-chertib olingen, o'tkir, pedagoglarning dardlarini, ularni qynayotgan masalalarni yoritadigan fikrlar, savollar, takliflar. Umuman, gazetaning har bir sonida kishi o'zi uchun kerakli, foydali, faoliyatida qo'llasa bo'ladigan yoki o'z faoliyatini haqida mushohadaga, taftishga undaydigan nimadir topa oladi. Shuning uchun ham "Ma'rifat" ta'lim tizimi vakillarining, keng ma'noda ziyolilarning yaqin hamrohi, ma'naviy do'sti bo'lib kelmoqda.

Yuqorida gazeta islohotlarning oldi saflarida turib kelmoqda, dedim. Isbot sifatida bir jihatga e'tiborni qaratmoqchiman. Respublika nashrlari orasida birinchilardan bo'lib to'liq lotin yozuvida chiqa boshlagan gazeta ham aynan "Ma'rifat" bo'ldi. Balkim, chetdan qara-

ganda bu arzimagan jihat bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin astida bolalar uehun atalgan nashrlaridan boshqa nashrlar faqat sarlavhani lotin yozuvida berib, qolgan barcha maqolalarni kirim yozuvida berayotgan, lotin yozuviga uzel-kesil o'tishimiz darumon bo'lib ko'rинган bir paytda bu katta qadam edi.

Yana bir jihat. Nazarimda, o'qituvchi xalqi odatda konservativ bo'ladi. Yangi narsani qabul qilishi qiyin bo'ldi. Shunga qaramay, gazetaning mobil ilovasini yaratgan, hozirgi tezkorlik talab qiladigan bir davrda gazetaning qog'oz nuxsasi bilan bir paytda elektron nuxsasi ham o'quvchilar qo'liga yetib borishimi ta'minlayotgan ham "Ma'rifat" bo'ldi.

Kezi kelganda yana bir gapni aytishni lozim topdim. "Ma'rifat"ning men uchun qadrli jihatlaridan yana biri – gazeta

orqali do'st orttirdim. Matbuot uchun sinovli bir pallada tahririyatga karvonboshilik qilayotgan, ta'lim tizimi vakillarining dardlarini olib chiqayotgan bosh muharrir – Husan Karvonlidek do'st orttirdim. Ayrim mayzularda qarashlarimiz bir xil, ayrim masalalarda turlicha bo'lsa-da, (bu tabiiy hol, albatta): Husan akaning Vatanimiz, tilimiz, ta'limimizning haqiqiy jonkuyari ekanligiga amin bo'ldim. Ishonamanki, tahririyatda aynan shunday insonlar yig'ilgan va ularning har biri farzandlarimizning sifatlari ta'lim olishi uchun, o'qituvchilarni qynayotgan muammolar o'z yechimini topishi uchun sidqidildan mehnat qilishmoqda.

Xullas, "Ma'rifat" ga, gazeta har hafta qo'slimizga yetib kelib biz bilan sabbatga kirishishi uchun mehnat qilayotganlarga, "Ma'rifat"ga oshnolarga – qutlug' to'y muborak bo'lsin!

Koril JALILOV

Marifat

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingen.
Indeks: 149, 150. V-4737. Tiraj 9877.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonasi – (71) 233-50-55;
kotibiyat – (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi –
(71) 233-42-92 (faks); (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsat bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqrib
qiliymaydi va muallif
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Zilola Madatova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoly ko'chasi, 30-uy.

123456

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.